

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 371.3

ACHILOVA SANOBAR IRGASHEVNA

**MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH TIZIMIDA
ANDRAGOGGLARNI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI**

5A 110901 – Pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.

«Pedagogika» kafedrası mudiri
dots. Abdumannotov A._____

«_____»_____2015 y

M.O'.

Ilmiy rahbar:

dots. Ahrorov Yu.A._____

Samarqand – 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH TIZIMIDA ANDRAGOGIK YONDASHUVNING MOHIYATI	
1.1. MO va QT markazida andragogik ta'lim xususiyatlari.....	6
1.2. O'zbekiston Respublikasida andragoglar tayyorlash tizimi va uning o'rganilishi.....	20
Bob yuzasidan xulosalar.....	23
II BOB. PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI TINGLOVCHILARIDA ANDRAGOGIK BILIM, KO'NIKMA, MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN, SHAKL, METODLARI	
2.1. O'quv jarayonini loyihalashtirish.....	24
2.2. Kattalar ta'limini tashkil etishning shakl va metodlari. O'quv jarayonini baholash.....	29
Bob yuzasidan xulosalar.....	32
III BOB. ISHSIZLAR, IMKONIYATI CHEKLANGAN KATTA YOSHDAGILARNI O'QITISHNING ALOHIDA XUSUSIYATLARI	
3.1. Ishsizlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....	33
3.2. Imkoniyati cheklangan katta yoshdagilarni o'qitishning alohida xususiyatlari.....	41
3.3. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning kasbga bo'lgan munosabat, mayl va intilishlarini aniqlashga bag'ishlangan tajriba-sinov natijalari tahlili.....	59
Bob yuzasidan xulosalar.....	66
Umumiy xulosalar.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	71
Ilovalar.....	77

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Andragogik ta'lim Jahon hamjamiyati tomonidan, uning nufuzli tashkiloti YUNESKO tomonidan tan olingan ta'lim sifatida hozirgi rivojlanishni ta'min etuvchi shakl sifatida tan olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2015 yilning «Keksalarni qadrlash va e'zozlash» yili deb e'lon qilinishi andragogik ta'limning dolzarb ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Mazkur ta'lim shakli va turini rivojlantirmasdan turib avlodlar bilim, ko'nikma va malakasining davomiyligini ta'minlab bo'lmaydi. YuNESKO tashkilotining materiallariga tayanadigan bo'lsak, kattalar ta'limining ustuvor vazifasi insonni har qanday zamonaviy tezkor rivojlanayotgan jamiyatda ijodiy faoliyat va quvonchli hayot uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi bilan ta'minlashdan iboratdir [9. 7-b].

Tadqiqotning ishlanganlik darajasi. Kattalar ta'limiga azaldan alohida diqqat e'tibor qaratilgan. Jumladan, ushbu muammo Jahon ta'limini rejalashtirish instituti (Parij), YuNESKOning ta'lim bo'yicha instituti (Gamburg), Rossiya ta'lim Akademiyasining katta yoshlilar ta'limi instituti (Sankt-Peterburg), O'zbekiston Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, universitetlar va pedagogika institutlari va markazlarida amalga oshirilmoqda [III. 9].

Ushbu tadqiqot bo'yicha hozirga qadar O'zbekiston milliy kutubxonasi materiallarida hech qanday ma'lumot yo'q.

Tadqiqot maqsadi: Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazida andragoglarni tayyorlashning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti: Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazida andragoglarni tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot vositalari: SamDU MO va QT markazidagi o'quv jarayoni va uning texnik-pedagogik ta'minoti.

Tadqiqot vazifalari: MO va qayta tayyorlash markazida andragoglarni tayyorlash mazmun, shakl va metodlarini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy farazi: agarda:

- andragoglarni tayyorlash reja va uslubiy ta'minot asosida bajarilsa;
- andragoglar tayyorgarligi YuNESKO tashkiloti belgilagan talablar asosida bajarilsa;
- ushbu tayyorgarlik tegishli OO'Yu MO va QT markazi rejasida aks ettirilsa;
- andragoglarga qiziqishi va ehtiyojini qoniqtiruvchi ilmiy-uslubiy ta'minot yaratilsa;

Ularning yosh xususiyatiga ko'ra izzat-hurmati joy-joyiga qo'yilsagina andragoglarni jahon andozasi darajasida tayyorlash mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazida andragoglarni tayyorlashning pedagogik asoslari:

- a) uning mazmuni;
- b) shakli;
- v) metodlari ishlab chiqilganligi bilan asoslandi.

Tadqiqotning metodlari: nazariy metodlar; ilmiy adabiyotlarni o'rganish (SamDU ilmiy zahiralarni markazida amalga oshiriladi); maxsus adabiyotlarni o'rganish; ilmiy-badiiy adabiyotlarni o'rganish; o'rganilgan materiallarni mavzu bo'yicha tahlil etish; nazariy va uslubiy-metodlar.

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun [I. 1], «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi ta'limning uzluksizligi, avlodlarning bir-biriga burchi – ota-onaning farzand, farzandning ota-onaga oldidagi burchiga doir tegishli qonunlar [I. 2], YuNESKO tomonidan qabul qilingan (1958-1994) Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qabul qilingan va ijro etilgan hujjatlar tashkil etadi [II. 1-13].

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Ushbu tadqiqotning nazariy asosini andragoglarni tayyorlashning nazariy tadqiqot sifatida o'z o'rniga ega ekanligi tasdiq etadi. Uning amaliy asosi haqida umuman so'z yuritish mumkin emas. Ota-onafarzand tizimi haligacha O'zbekistonda mavh etilmagan.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbic etilishi: Tadqiqot natijalari Samarqand viloyat pedagogik xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish

institutida, SamDU pedagogika kafedrası ilmiy seminarida, ma'ruza va ilmiy to'plamlarda maqola nashr ettirish orqali amaliyotga tatbiq etildi.

Tadqiqot ishlarining ommalashtirilishi: Tadqiqot natijalari Respublika miqiyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, SamDU talabalari va magistrantlari an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza shaklida hamda ilmiy jurnal, to'plamlarida maqolalar shaklida ommalashtirildi.

Magistrlik dissertasiyasining tuzilishi va hajmi: Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Tadqiqotning bosqichlari: Tadqiqot to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich: Tashxis va bashorat bosqichi (2013 yil sentyabr-dekabr oylari). Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, predmeti va obykti aniqlanadi, rejasi tuziladi, tajriba-sinov maydonchasi belgilanadi, magistrant bilan shartnoma tuzildi.

Ikkinchi bosqich: Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (2014 yil yanvar-may oylari). Tadqiqot yuzasidan ilmiy, metodik adabiyotlar o'rganiladi, ularga asoslangan holda tadqiqotning ilmiy farazi, metodologiyasi aniqlanadi, tajriba-sinov ishi rejasi va metodlari aniqlandi.

Uchinchi bosqich: Ta'limiy-shakllantiruvchi bosqich (2014 yil yanvar-iyun oylari). Tadqiqot maqsad va vazifalariga oid muammolar bo'yicha test, anketa so'rovnomalari, suhbatlar, kuzatishlar o'tkazildi.

To'rtinchi bosqich: Umumlashtiruvchi bosqich (2015 yil yanvar-iyun oylari). Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan nazariy, pedagogik, ilmiy-uslubiy asoslar ishlab chiqiladi va asoslab berildi. Metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

I BOB. MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH TIZIMIDA ANDRAGOGIK YONDOSHUV

1.1. MO va QT markazida andragogik ta'lim xususiyatlari

Katta yoshdagi kishining uzoq hayotiy yo'lida uning bolaligi va yoshligida egallagan bilim, malaka, ko'nikma va sifatlari yetarli emas, shuning uchun unga butun umr davomida o'qish zarur. Lekin inson o'z hayoti davrida o'zgaradi, demak u turli yosh davrida turlicha o'qiydi. Insonning asrlar davomidagi ijtimoiy, ishlab chiqarish, maishiy sohalaridagi turmush tarzi undan butun umr davomida o'zini o'qitishga harakat qilishni talab etmagan. Shuning uchun kattalar ta'limi uzoq vaqt davomida keng rivojlanmagan, demak kattalarni o'qitish to'g'risidagi fanning rivojlanishi uchun jamiyatda kuchli ehtiyoj ham mavjud bo'lmagan.

Ikkinchi ming yillikning oxirida kattalar ta'limi butun insoniyat rivojlanishining mezoniga aylandi. Jamiyat hayotiga jalb qilingan har bir insonning eng birinchi muammosi uning kompetentlik darajasining jamiyat rivojlanishining sur'atlaridan orqada qolishi bo'lib qoldi.

Hozirgi kunda katta yoshdagi insonlarni o'qitish jarayonini tashkil qilishda yangi yondashuvlarga bo'lgan zarurat va kattalar ta'limi ahamiyatining o'sib borishi alohida sezilmoqda. Dunyoda unga o'zining texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishi bilan ehtiyoj sezmaganda davlatning o'zi mavjud emas. Sotsiologlar XXI asrda kattalar ta'limiga alohida muhim rol ajratmoqdalar [III. 9. 6-b]. Kattalar ta'limidagi tarixiy o'zgarishlarga xos bo'lgan tendensiyalar - uning mazmuniy va tashkiliy xususiyatlarga ega bo'lishi, faqat kattalar ta'limiga ixtisoslashtirilgan muassasalar tizimining kengayishi, ular tomonidan taklif qilinayotgan ta'lim dasturlari turlarining ko'payishi bilan tavsiflanadi [III. 9. 6-b].

YuNESKO tashkilotining materiallari bo'yicha, kattalar ta'limining ustuvor vazifasi – insonni zamonaviy tezkor rivojlanayotgan jamiyatda ijodiy faoliyat va quvonchli hayot uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi bilan ta'minlashdir. Bunda so'z insonni mehnat qiluvchi, fuqaro, shaxs sifatida uning butun umri davomida to'xtamasdan rivojlanishi to'g'risida ketmoqda [III. 9. 7-b].

XX asrning o'rtalariga kelib, kattalar ta'limi to'g'risida maxsus fanni yaratishga bo'lgan ehtiyoj sezila boshlaganda, bu vaqtga kelib, dunyoning turli mamlakatlarida kattalar ta'limini tashkil etishda katta amaliy tajriba, katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning alohida xususiyatlari va ularni o'qitish jarayoni to'g'risida kuzatuvlar to'plangan edi. Ana shundagina ta'lim sohasida yangi ilmiy fan – andragogika, kattalar ta'limi muammolari bilan shug'ullanuvchi fan shakllana boshladi.

“Andragogika” tushunchasi ilmiy rusumga nemis pedagogika tarixshunosi A. Kapp tomonidan kiritilgan. U “pedagogika” so'ziga o'xshash tuzilgan bo'lib, grek tilidan kelib chiqqan (*andros* — erkak, odam; *agogeyn* — olib borish, yetaklash) [III. 9]. So'zma-so'z tarjima qilinganda andragogika — bu “katta odamni boshqarish, yetaklash”ni bildiradi. Bu atama pedagogik voqe'likdan vujudga kelgan ekan, unda so'z katta yoshdagi odamni ta'lim orqali boshqarish, yetaklash to'g'risida boradi [III. 9].

Andragogika asoslarini uzil-kesil shakllantirish 1970-yillarda amerikalik olim M.Sh.Noulz, angliyalik P. Djarvis, amerikalik R.M.Smit va Nottingem universitetining bir guruh olimlari tomonidan amalga oshirilgan. 1970 yilda M.Sh.Noulz andragogika bo'yicha "Kattalar ta'limning zamonaviy amaliyoti. Andragogika pedagogikaga qarshi" [III. 16. 7-b] nomli fundamental asarni nashrdan chiqardi.

Andragogikani turli xil vaziyatlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin: ilmiy bilim sohasi, ijtimoiy amaliyot sohasi, o'quv predmeti.

Andragogikaning ilmiy xususiyati to'g'risida tasavvurni shakllantirish uchun: u o'rganadigan predmetni; predmetga ta'rif beruvchi tushunchalar tizimini; uni ilmiy tafakurlash va qayta tuzish jarayoniga yordam beruvchi asosiy tamoyillar va metodlarni aniqlash lozim.

Andragogikani ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida o'zlashtirish kattalar ta'limi bo'yicha faoliyatning ma'nosi va mohiyatiga mos keluvchi kasbiy ko'rsatmalar, bilimlar, malakalar, ko'nikmalar va qadriyatli munosabatlarni egallashni ko'zda tutadi.

Andragogikaning o'quv predmeti sifatidagi xususiyatlarini tushunish uchun mutaxassis tayyorlash tuzilmasidagi uning o'rni ta'limiy salohiyatini o'rganish muhimdir.

Andragogika - uning ma'nosiga mos ravishda asosiy funksiyasi - katta odamni boshqarish, yetaklashdir. Buning uchun boshqarilayotgan, yetaklanayotgan odamning tabiati va xususiyatlarini bilish lozim. Shuning uchun andragogikaning ilmiy bilimlarning fan tizimiga kirgan boshqa sohalari bilan yaqin aloqalari o'rnatilishi zarur. Andragogikaga mashhur Rossiya psixologi B.G.Ananyev tomonidan **insonshunoslik** deb ta'rif berilgan [III. 16. 8-b].

Andragogik bilim, to'la mustaqil bilim sohasi bo'lib, katta yoshdagi kishilarning o'zaro harakatlari tizimida o'qitish bilan bog'liq muammolarga diqqatni jamlagan holda alohida funksiyani bajaradi.

Andragogik bilimning ilmiy konteksti quyidagi kategoriyalarni ko'rib chiqish bilan aniqlanadi:

- *inson* (uning, voyaga yetgan deb tavsiflangan hayot faoliyati davomida bir butunligi);
- *voyaga yetganlik* (katta yoshdagi odamning xususiyatlarini o'qitish subyekti sifatida ko'rib chiqishning yosh va ijtimoiy diapazonini belgilovchi sifat);
- *kattalar ta'limi* (uzluksiz ta'lim doirasida variativ shaklda amalga oshiriluvchi insonning kasbiy-shaxsiy shakllanish jarayoni);
- *uzluksiz ta'lim* (insonning butun hayot faoliyatiga nisbatan ko'rib chiqiladigan ta'lim);
- *andragog* (faoliyatining mazmuni kattalarni o'qitish sohasi bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislarning umumiy nomi)[III. 22].

Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazida andragogika, kattalarni o'qitish amaliyotini o'rganuvchi va umumlashtiruvchi fan sifatida katta yoshdagi odamlarning ta'limiy maqsadlarini asoslangan holda shakllantirish va amalga oshirishga imkon beradi. U kattalar hayotida ta'limning rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi va moslashtiruvchi rolini ta'minlashga yordam beradigan

tamoyillar, metodlar va vositalarni ochib beradi. Shunday qilib, andragogik tayyorgarlik butun umr davomida ta'lim muammosini yechimini hal qiladi.

Andragogika o'quv predmeti sifatida. Andragogika nafaqat katta yoshdagi kishilarning ijtimoiy-psixologik yoki kasbiy o'zaro munosabatlarida, balki, avvalambor, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan muayyan mazmun bilan ishlash zarur bo'lganda, va katta yoshdagi insonning oldida ta'limiy vazifalar turgandagina namoyon bo'ladi. **Andragog — asosiy kasbiy funksiyasi kattalarni o'qitishdan iborat bo'lgan mutaxassisdir.** Lekin, andragogik (ta'limiy-tarbiyaviy) funksiyani “odam-odam” tizimida ishlaydigan har qanday mutaxassis o'ziga olishi mumkin. Uni uzluksiz kasbiy yoki qo'shimcha pedagogik ta'lim tizimida malaka oshirish shaklida fakultativ yoki normativ ko'rinishda o'zlashtirish mumkin.

Andragogika o'quv fani sifatida juda zarur, chunki u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- katta yoshdagi kishilar (hamkasblar, mijozlar, ta'lim oluvchilar) bilan o'zaro axborot-ta'limiy muloqot madaniyatini shakllantiruvchi kasbiy bilimlar;
- har bir kishiga butun umr davomida uning kasbiy, ma'naviy, madaniy, rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan shaxsiy zarur bilimlar.

Bu fan bevosita oliy, o'rta ta'lim yoki malaka oshirish muassasasi o'qituvchisi bo'lishga tayyorlanayotganlarga, hamda ijtimoiy ishlar, madaniy-oqartuv faoliyati, ommaviy axborot vositalarida ishlamoqchi bo'lganlar uchun zarurdir. “Inson-inson” turiga kiruvchi kasblarni (jurnalist, tibbiyotchi, kutubxonachi, aktyor, siyosatchi, ijtimoiy psixolog va boshqa ko'pchilik kasblarni) ham andragogik komponentga kiritiladi. Sotsiologlarning qayd etishicha, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining muvaffaqiyatli amaliy faoliyatining 15-20% olingan kasbiy bilimlarga bog'liq, qolganlari esa odamlar bilan ishlash ko'nikmasi bilan aniqlanadi.

Andragogik bilimlarning xususiyati

Agar olingan bilimlarni kishining hayot faoliyati uchun muhimligi darajasi bilan baholansa, unda ularning quyidagi sifat xarakteristikalarini ajratish mumkin:

- *Fundamental* (muayyan vaqt uchun olamni tushunishni belgilab beradi,

chunki u olamni tavsiflaydigan axborotlar yig'indisidan iboratdir);

- *amaliy* ("shu yerda va hozir" zarur bo'lgan, muayyan harakatlarni amalga oshirish uchun yordam beruvchi);

- *o'zib ketuvchi* (hayotda real paydo bo'luvchi muammolar va holatlarni oldini oluvchi zaxira bilimlar);

- *kuzatib boruvchi* (vujudga keluvchi yoki taklif qilingan hayot muammolarining rivojlanishi bilan shartlanuvchi u yoki bu ta'limiy ehtiyojlarning tashqaridan paydo bo'lishi bilan bog'liq bilimlar);

- *to'ldiruvchi* (hayot faoliyatining ma'lum davrini unumli o'tkazish uchun zarur bo'lgan ta'limiy yoki umummadaniy axborotning yetishmasligini to'ldiruvchi bilimlar);

- *tuzatuvchi* (ijtimoiy qabul qilingan ko'rinishlarga mos kelmaydigan shaxsiy, xulqiy, kommunikativ va boshqa ko'rinishlardagi o'zgarishlarni shartlovchi bilimlar);

- *rivojlantiruvchi* (shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi);

- *qo'llab-quvvatlovchi* (alohida muammolarni hal qilish, hayotning murakkab davrini unumli o'tish, bo'xronli holatni yengib o'tish uchun zarur bo'lgan bilimlar)[III. 9.].

Katta yoshdagilar va bolalarning o'quv jarayoniga munosabati

Katta yoshdagi ta'lim oluvchi	O'quvchi bolalar, yoshlar
Avvalambor xususiy muammolarga intiladi.	Umumiy muammolarga intiladi.
O'qitish o'qiyotgan insonga, uning hayotiy ehtiyojlariga, uning bugungi amaliy faoliyatiga yo'naltirilgan.	O'qitish avvalgi avlodlar tajribasini o'zlashtirishga, kitoblarga, ularning mazmuniga, avvalgi avlodlar o'zlashtirib bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yig'ishga yo'naltirilgan.
O'quv dasturi o'qitiluvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.	O'qitish avvaldan aniqlangan dastur asosida tashkil qilinadi.
O'zining shaxsiy tajribasi asosida o'qiydi, uni yangi axborotlar bilan solishtiradi va shuning hisobiga o'z tajribasini boyitadi.	Boshqalarning tajribasini o'zlashtirish hisobiga tajribasi ortadi.

Unga amalda qo'llash uchun zarur bo'lgan narsalarni o'zlashtiradi.	Mashg'ulotlarda eshitgan, o'qigan narsalarini o'zlashtiradi.
Asosiy diqqat o'zining kasbiy malakasini, o'zining fuqarolik burchini va statusini oshirishga, mehnat sharoitlari va ijtimoiy faoliyatni yaxshilashga, o'zining qiziqishlarini (o'zining bolalarini tarbiyasi sifatida, sportga, tabiatga, texnikaga, bog'dorchilikka va b.q.) qondirishga, bo'sh vaqtini yanada to'liqroq tashkil qilishga qaratiladi.	Asosiy diqqat o'qishning muvaffaqiyatlilikiga, baholarga, sinovlar va imtihonlarni topshirishga tayyorligiga qaratiladi.
Voqelik, o'zining hozirgi hayoti va yaqin kelajagi bilan bog'liq narsalarni alohida qiziqish bilan o'rganadi.	Maktabdagi bilimlar o'tmishga tayanadi va odatda ularni ishlatadigan paytda ular ma'lum darajada eskiradi, buni anglash esa o'qishga bo'lgan qiziqishni pasaytiradi.
Alohida diqqat va chuqurlashtirilgan tadqiqotlar o'quv materialining tinglovchini qiziqtirgan sohalariga qaratiladi, bu sohalarda u unga taqdim etilayotgan o'quv materiali doirasidan tashqarida o'z tadqiqotlarini kengaytirishi mumkin.	Diqqat dastur va o'qituvchi belgilagan bilim sohalari bilan chegaralangan.
O'qituvchilar katta odam uchun yangi axborotlar sohasida maslahatchi va gid bo'lib xizmat qiladi, u dalda beradi, xushmuomalalik bilan tuzatishlar kiritadi, mustaqil o'zlashtirish uchun axborotlarning yangi manbalarini ko'rsatib beradi va taklif qiladi.	O'qituvchining o'zi yangi axborotlarning manbai bo'lib xizmat qiladi, u axborotlarni tarqatadi va ularni egallashni boshqaradi.
O'qituvchi tinglovchilar tomonidan talab qilingan va o'zlashtirila olinadigan axborotlarni beradi, bu hajmni o'qitilayotganlarning imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan solishtiradi.	O'qituvchi avvaldan aniqlangan dasturiy bilimlar hajmini beradi.
Eng yuqori nufuzli bo'lib o'zining tajribasi hisoblanadi, ana shu orqali o'qituvchilar va kitoblar, yangi axborotlar baholanadi.	O'qitishda o'qituvchi va kitoblar isbotlanmagan nufuzga ega.
Baholarga keng e'tibor qilmaydi, ular ikkinchi darajali rol o'ynaydi, asosiy diqqat o'qishning foydaliligiga qaratilgan.	Baholarga yo'naltirilgan, asosiy diqqat yaxshi baholarga erishishga qaratilgan.

O'quv dasturi o'quv jarayonida obyektiv (masalan, tashqaridan yangi axborotning kelishi) va subyektiv (tinglovchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlarining o'zgarishi) sabablarga bog'liq ravishda qisqarishi, kengayishi, o'zgarishi mumkin.	O'quv dasturi o'qitish jarayonida o'zgarmaydi.
O'quv dasturi tinglovchilarning ehtiyojlari, ta'lim muassasasining imkoniyatlari va ushbu yo'nalishning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini birgalikda hisobga olgan holda tanlanadi..	O'quv dasturi ta'limni boshqarish organi tomonidan tasdiqlab beriladi va shu doirada o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi
Olingan bilimlarni o'z faoliyatida o'sha xaxoti qo'llash maqsadida o'qiydi..	O'qish davomida yig'ilgan bilimlarni kelajakda qo'llash ko'zda tutiladi.
O'qish samaradorligi va o'quv axborotlarini o'zlashtirish uning vertikal oqimi (o'qituvchidan ta'lim oluvchiga) bilan gorizontal oqimini (boshqa o'quvchilar bilan munozarada keng tarzda fikr almashish) birgalikda hisobga olinganda oshadi.	O'quv axborotlarining asosiy oqimi vertikal yo'nalishda kechadi.
Teskari aloqa mashg'ulotlarda o'quv faolligining rivojlanishi orqali amalga oshadi.	Teskari aloqa kuzatuvchi (so'rov, baholash) yoki bosqichli (sinov, imtihon) nazorat yo'li bilan amalga oshiriladi.
O'qitishdagi o'quv faolligi ijtimoiy-o'zgartiruvchi tomonga rivojlanadi.	O'quv faolligi ta'limning yagona maqsadi bo'lib xizmat qiladi.

Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning xususiyatlari

1. Mustaqil o'qishning ustuvorligi. Ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyati katta yoshdagi o'quvchilar o'quv ishlarining asosiy turi hisoblanadi. Bunda o'quv faoliyati turi sifatidagi mustaqil ishlarni o'tkazish emas, balki ta'lim oluvchilar tomonidan o'zining o'qishini tashkil etishni mustaqil amalga oshirish tushuniladi. Bu tamoyil katta yoshdagi odam uchun o'quv materialini bilan mustaqil ishlash va taklif etilgan topshiriqlarni bajarish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunda zamonaviy masofaviy ta'lim kattagina yordam ko'rsatadi. Ushbu tamoyilni qo'llash ta'limni tashkil etuvchilardan oldindan tayyorgarlik ko'rishni: o'quv dasturlarini tuzish, o'quv materialini tanlash va ko'paytirish, o'qitadigan kompyuter dasturlarini sotib olish va yaratishni talab qiladi.

2. Birgalikdagi faoliyat tamoyili. Bu tamoyil ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonini tashkil qilishning barcha bosqichlarida o'qituvchi hamda o'z hamkasblari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishini ko'zda tutadi.

3. Ta'lim oluvchilar tajribasiga tayanish tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra ta'lim oluvchilarning hayotiy (maishiy, ijtimoiy, kasbiy) tajribasidan ta'lim oluvchining o'zi yoki uning hamkasblarining bilim manba'si sifatida foydalaniladi. Bu tamoyil ta'lim oluvchilarning ijodiy ishlarini rag'batlantiruvchi faol metodlarga asoslangan. Diqqatni mustaqil ishlarga – (oldindan berilgan shablon bo'yicha) referat turidagi ishlarni, loyihalarni yozishga qaratish lozim.

4. Ta'limni individuallashtirish. Bu tamoyilga ko'ra har bir ta'lim oluvchi boshqa ta'lim oluvchilar bilan birgalikda muayyan ta'limiy ehtiyojlarga va ta'lim maqsadlariga yo'naltirilgan hamda ta'lim oluvchilarning tajribasi, tayyorgarlik darajasi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga oluvchi individual ta'lim dasturini yaratadi. Individual yondashuv asosida ta'lim oluvchi shaxsining bahosi, uning kasbiy faoliyati, ijtimoiy statusi va jamoadagi o'zaro munosabatlari tasnifi yotadi.

5. Yangi bilimlarni o'zlashtirishga to'siq bo'ladigan eskirgan tajribalar va shaxsiy ko'nikmalarni tuzatish tamoyili. Bu yerda davr talablari bilan, korporativ maqsadlar bilan ziddiyatga kirishadigan kasbiy va ijtimoiy tajribalar qo'llanilishi mumkin. Masalan, yuqori malakali mutaxassis o'zining shaxsiy xotirjamligi uchun soya soluvchi deb bilgan individual ishga, shaxsiy bilimlarini yashirishga, kelajagi porloq yangi ishchilarni ko'ra olmaslikka o'zini sozlashi mumkin. Bunday hollarda suhbatlar, o'rgangan odatlarining asossizligini isbotlash, yangi nuqtai nazarni shakllantirish, yangi istiqbollarni ochib berish va b.q., ya'ni tarbiyaviy tadbirlar lozimdir.

6. O'qitishning tizimliliigi. Maqsadlar, mazmun, shakllar, metodlar, o'qitish vositalari va o'qitish natijalarini baholashning mosligiga rioya qilish.

7. O'qitishning kontekstliliigi. Bu tamoyilga ko'ra o'qitish, bir tomondan aniq, ta'lim oluvchiga hayotiy muhim bo'lgan maqsadlarni ko'zlaydi, ular tomonidan ijtimoiy rollarni bajarishga yoki shaxsning rivojlanishiga yo'naltirilgan,

boshqa tomondan esa, ta'lim oluvchining fazoviy, davriy, kasbiy, maishiy mezonlari (shartlari) ni hisobga olgan holda quriladi.

8. Ta'lim natijalarini dolzarblashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil ta'lim oluvchi tomonidan olingan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, shaxsiy sifatlar va shaxsiyatli yo'nalishlarni kechiktirmay amalda qo'llashni ko'zda tutadi.

9. Ta'limning elektivligi tamoyili. U ta'lim oluvchiga maqsadlar, mazmun, shakllar, metodlar, manbalar, vositalar, muddatlar, vaqt, o'quv joyi, ta'lim natijalarini baholash hamda ta'lim oluvchilarning o'zlarini tanlashda muayyan erkinliklar berishni bildiradi.

10. Reflektivlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim oluvchining o'quv jarayoniga anglagan holda munosabatiga asoslangan, bu esa o'z navbatida uning motivatsiyasining asosiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

11. Ta'lim natijalarining ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyati tomonidan talab qilinganligi tamoyili. Avvalambor, bu olingan bilimlar, malakalar, ko'nikmalarning ta'lim oluvchining mehnat faoliyatida talab qilinganligidir.

12. Ta'limning tizimlilik tamoyili. U ta'limning maqsadlari va mazmunining uning shakllari, metodlari, vositalari va o'qitish natijalarini baholashga mosligidan iboratdir. Tizimlilikni muntazamlilik sifatida ham, ya'ni ta'limning uzluksizligi yoki doimiyligini rivojlantirish tamoyili tushunish mumkin, bunda avvalgi ta'lim natijalari va o'qishga bo'lgan yangi ehtiyojlar hisobga olinadi.

13. Ta'lim oluvchining rivojlanishi tamoyili. O'qitish shaxsni rivojlantirishga, o'z-o'zini o'qitishga bo'lgan qobiliyatlarni yaratishga, insonning amaliy faoliyati jarayonida yangiliklarni egallashiga yo'naltirilgan.

14. Ta'limiy ehtiyojlarni rivojlantirish tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, birinchidan, o'qitish natijalarini baholash o'quv materialini o'zlashtirishning real darajasini va o'zlashtirmasdan turib, qo'yilgan ta'lim maqsadlariga erishish mumkin emas bo'lgan o'quv materialini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi; ikkinchidan, ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarda yangi ta'limiy ehtiyojlarni muayyan o'qitish maqsadlarida aniqlashtirgandan so'ng shakllantirish maqsadida

quriladi.

15. Ta'limning tan olinishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim jarayoni subyektlari tomonidan o'qitish jarayonini tashkil etish bo'yicha barcha parametrlar va o'zlarining harakatlarini anglashi, tushunib yetishini bildiradi [III. 9. 17-b].

**Andragog va pedagogning kasbiy faoliyati sohalarini
taqqoslash jadvali [III. 9. 18-b]**

Ko'rsatgich	Pedagogik faoliyat	Andragogik faoliyat
Kasbiy faoliyat obyekti	shaxsi shakllanish jarayonida bo'lgan bolalar va yoshlar	shakllangan, ko'p hollarda bazaviy ma'lumotga, ijtimoiy va ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lgan katta yoshdagi kishilar
Kasbiy faoliyat subyekti	pedagog	andragog, ta'lim oluvchi (stajor)
O'zaro harakat maqsadi	rivojlantirish, tarbiyalash, kelajak hayot faoliyatiga tayyorlash	shaxsning rivojlanishi va takomillashtirilishiga, tarbiyalashga, (qayta tarbiyalashga) o'qitishga, (qayta o'qitishga), moslashishga, mustaqil ta'lim olishiga va o'z-o'zini rivojlantirishiga ko'mak berish
Vazifalar	bilim, malaka, ko'nikmalarni, shaxsning bazaviy madaniyatini shakllantirish, pedagogik tashxis, baholash va nazorat qilish	uzluksiz ta'lim olish va o'z-o'zini o'qitishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish; shaxsga o'zining muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini qidirishda, o'z-o'zini takomillashtirish zarurligini anglashda yordam berish; stajorga yangi bilimlar va ko'nikmalarni avval shakllangan bilimlar va ko'nikmalar tuzilmasiga "joylashtirish"da yordam berish; katta yoshdagi kishining ta'lim olishiga zarur bo'lgan sharoitlarni tahlil qilish va yaratish; qo'yilgan maqsadga mos ravishda o'z ichiga ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini olgan andragogik ta'sir majmuasini yaratish; holat tashxisini, hisobot, baholash va nazoratni amalga oshirish.
Bilish - tarbiyalash	shakllanayotgan	ko'p hollarda yordamchi, qo'shimcha

faoliyatining mohiyati	shaxsning asosiy faoliyat turi	
Asosiy ish shakllari	sinf, o'quv guruhi, individual mashg'ulotlar	individual, guruhli
Metodlar	ma'ruzalar, suhbatlar, ko'rgazmalar, hikoya, munozara va boshqa pedagogik metodlar	ta'limning interfaol metodlari va mustaqil ta'lim

Andragog:

- katta yoshdagi shakllangan insonga uning o'z hayotini o'zgartirish bo'yicha niyatlarida samarali ko'mak berish qobiliyatiga ega bo'lgan obro'li shaxs;
- turli tashkilot va korxonalarning o'zaro munosabatini mahoratli foydalanuvchi samarali administrator bo'lishi lozim.

Andragogning ixtisosliklari turlicha bo'lishi mumkin: o'qituvchi-andragog, tarbiyachi-andragog, tashkilotchi-andragog (menejer), maslahatchi-andragog, ilmiy xodim va b.q.

Andragog quyidagilarni bajarishi lozim:

- o'zining imkoniyatlari, kuchli va kuchsiz tomonlarini obyektiv baholashi;
- katta yoshdagi ta'lim oluvchining kasbiy ahamiyatli sifatlarini anglashi;
- olingan inson to'g'risidagi bilimlarini o'zining keyingi kasbiy faoliyati uchun ahamiyatini tushunishi;
- o'zi tomonidan tanlangan ixtisoslikning keyingi rivojlanish uchun ochib beradigan istiqbolini ko'ra bilishi.

Andragog-o'qituvchi quyidagilarni bilishi lozim:

- ijtimoiy va umuiy falsafa asoslari, hamda shaxs va ta'lim falsafasi;
- umumiy va kasbiy pedagogika, andragogika, tarbiya nazariyasi va didaktika asoslari, andragogika nazariyasi va tarixi;
- ta'lim texnologiyalari (ta'limning innotvasion texnologiyalari);

- ta'lim psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy va yosh psixologiyasi, kasb-hunarga yo'naltirish asoslari, pedagogika, andragogika va sotsiologiya asoslari, yosh fiziologiyasi;

- pedagogik va andragogik menejment (ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish);

- iqtisodiyot asoslari;

- huquq asoslari (ma'muriy, fuqarolik, jinoyat va b.q.) [III. 16].

Andragogning kasbiy va shaxsiy sifatleri

Andragogning kasbiy kompetentligida boshqaruv va psixologik-andragogik kompetentlikni ajratish mumkin. Boshqaruv kompetentligini xodimning turli davlat tuzilmalari, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va b.q. faoliyatini tashkil qilishning ilmiy asoslari to'g'risidagi ilmiy bilimlarga asoslangan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalari (tajriba) shakllantiradi. Andragogga katta yoshdagilar bilan ishlashning nazariyasi, metodikasi va texnologiyasi, andragogik menejment (boshqaruv asoslari, etika va rahbarlik psixologiyasi, so'zlash va muomala madaniyati va shu kabilar) bo'yicha bilimlar, hamda tashkilotchilik, psixologik, andragogik, kommunikativ ko'nikmalar zarurdir.

Andragogning kompetentligi quyidagi vazifalarni mahorat bilan hal qilish imkonini beradi:

- boshqaruvchi-tashkilotchilik – uzluksiz ta'lim tizimida katta yoshdagi odamlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni tashkil qilish va amalga oshirish, jumladan, kattalar uchun ta'lim muassasalarida, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalardagi korxona va tashkilotlarda andragogik kadrlarni (boshqaruv apparati xodimi, inspektor, metodist, ekspert, tyutor) tayyorlash va attestatsiya qilish;

- ilmiy-tadqiqot – bilish-rivojlanish jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish, baholash va tuzatish muammolarini hal qilish (ilmiy xodim);

- shaxsiyatli-rivojlantiruvchi – o'z kompetentligini andragog faoliyatining xususiyatlari va ilmiy-texnika progressi talablaridan kelib chiqib doimiy oshirish;

- ijtimoiy-psixologik – ta'lim tizimida va keyingi hayot faoliyatida kattalarni moslashtirish, rehabilitatsiya qilish va motivasiyalashtirish, kattalar bilan ularning

ishlab chiqarish, o'quv, ijtimoiy, shaxsiy hayoti masalalarida maslahatli, ijtimoiy-reabilitatsion ishlar (konsultant, ijtimoiy xodim, ta'lim xizmatlari sohasida axborot-yo'nalish xizmatlari xodimi);

- ta'limiy-metodik – uzluksiz ta'limning barcha darajalarida katta yoshdagi shaxsning bilim, malaka va sifatlarini shakllantirishda yordam berish, ta'lim jarayonini ilmiy tashkil qilishda va amalga oshirishda ko'mak berish, o'quv jarayonining sifati va bilimlarni baholash;

- prognostik – istiqbolni belgilash ko'nikmalariga ega bo'lish va ularni amaliy va tadqiqot faoliyatida qo'llash.

Andragog faoliyatini to'laqonli amalga oshirishi uchun: insonparvarlik, kompetentlik va muloqotchanlik, tegishli kasbiy bilimlar, malakalar va katta odamlar bilan ishlash ko'nikmalari, obro'lilik, artistlik, yo'lboshchilik sifatlari, hamdardlik qobiliyati (empatiya) va b.q. umumiy talablar qo'yiladi.

O'zining faoliyatini amalga oshirish uchun andragog katta yoshdagi kishilarning yosh, fiziologik, psixologik, kasbiy xususiyatlari va ularning o'qishda, mehnat, ijtimoiy, maishiy faoliyatidagi xulqlari to'g'risidagi bilimlarga, katta yoshdagi kishilar bilan ishlash malaka va ko'nikmalariga, muayyan sifatlar va qadriyatli yo'nalishlarga ega bo'lishi lozim.

Andragog professionalizmining mezonlarini shartli ravishda subyektiv (insonning uning tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'lgan shaxsiy axloqiy ko'rsatmalari) va obyektiv (sabrlik, iltifotlilik, sezgirlik (eshitish qobiliyati), vazminlik ("yengil" va "qiyin" mijozlar bilan muloqotining yagonaligi), nozik didlik (shaxs hissiyotlarini hurmat qilish), rahmlilik (empatiya, insoniylik) ga bo'lish mumkin).

Andragogning dunyoqarashi har bir inson quyidagilarga ega bo'lishi lozimligi bilan shakllanadi:

- o'zining fazilatlariga ega (uning kuchli tomonlari, ochilmagan resurslarini izlash nazarda tutiladi);

- o'zining asosida faol (faollik-jismoniy, psixik yoki ijtimoiy-ijobiy);

- o'zi uchun javob berishni xohlaydi (andragog o'qitish jarayonini

yengillashtiruvchi tuzilma va mazmunga javob beradi, ta'lim oluvchi esa, tirishqoqlikka, o'quv jarayoninig qolgan ishtirokchilarini hurmat qilishga);

- rivojlanishi mumkin (umidsiz ta'lim oluvchi yo'q, ularni rag'batlantirmaydigan va motivlashtirmaydigan andragoglar bor)[III. 9].

Andragog faol eshitish, ko'rish kontakti kabi tolerant muloqot texnikasiga ega bo'lishi, ta'lim oluvchilarni qo'llab quvvatlashni bilishi, ular bilan o'zaro bir-birini tushunishga erishishi, uning o'zini anglashi va o'z-o'zini rivojlantirishini rag'batlantira olishi lozim.

O'qituvchi-andragogning ishga kasbiy yo'nalganligi unda kasbiy bilimlar va malakalarning, shaxsning kasbiy yo'nalganligining, shaxsiy kasbiy muhim sifatlarning mavjudligi bilan aniqlanadi. Kasbiy muhim sifatlarga ochiqlik, muloqotchanlik, ta'lim oluvchilarning muammolariga qiziquvchanlik kiradi.

Andragogning kasbiy etikasi:

- ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish, uning xato qilishga bo'lgan xuquqini tan olish, uning muammolarini tushunish, insonni uning barcha xulqlarida qabul qilish;

- kasbiy haqqoniylik — ta'lim jarayoni ishtirokchilarining har birining fazilatlarini hisobga oluvchi, kattalar tarbiyasida insoniy munosabatlarning zaruriy tartibi;

- kasbiy burch — axloqiylikning umuminsoniy tushunchasini alohida andragogning xususiy holatda axloqiy burchga asoslangan javobgarlik, o'zini anglash, motiv tushunchalari bilan chambarchas bog'langan shaxsiy vazifasiga qo'yilishi;

- kasbiy izzat-nafs — kasbiy faoliyatdagi axloqiy xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan, xulqqa bo'lgan me'yoriy talablarni ko'rsatib beradigan, insonga uning o'zi sazovor bo'lgan hurmat darajasini ko'zda tutadigan insonning o'z-o'ziga va jamiyatning unga bo'lgan munosabati;

- kasbiy vijdon — andragog tomonidan o'zining burchi va ta'lim oluvchilar oldidagi javobgarligini subyektiv ravishda anglashi, hnaqqoniy ish qilishga bo'lgan ichki ehtiyoji, axloqiy o'zini nazorat qilish funksiyasini amalga oshirishi.

1.2. O'zbekiston Respublikasida andragoglar tayyorlash tizimi va uning o'rganilishi

Hozirgi paytda Respublikamizda andragoglar tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi universitetlar qoshidagi MO va QT markazlari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Chunki O'zbekistonda katta yoshdagilar uchun ta'limni butun hayot mobaynida rivojlantirish zaruriyatini jamiyatimiz taraqqiyoti talab etmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va ta'lim texnologiyasining yanada takomillashib borishi iqtisodiyotning barqarorlashuviga zamin hozirlamoqda. Bu esa, madaniyatimizning ravnaq topishiga olib kelmoqda. Madaniy-ma'rifiy nufuzli jamiyatda mustahkam tayanch ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash – davr taqazosi. Bunday mutaxassis yildan-yilga o'z bilimi, ko'nikma va mahoratini chuqurlashtirishi va takomillashtirib turishi uchun yana o'qishi, ta'lim olishi lozim bo'ladi.

Ana shu sababli, jamiyatimizning barcha sohalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash birgina ta'lim tizimi yo'nalishidagina amalga oshirilishi yetarli emas. Chunki har yili o'rta umumiy ta'lim va kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarni bitiruvchilarning 4 dan 1 qismigina keyingi bosqichlarda bilim olish va muayyan ixtisoslikni egallash imkoniyatiga ega. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarini tamomlagan mutaxassislarning ham ma'lum bir qismi u yoki bu sabablarga ko'ra o'z sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatmaydilar [III. 9].

Bu esa, o'z navbatida andragoglar tayyorlash katta yoshdagilar ta'lim tizimini takomillashtirishni, bu tizimni rivojlantirishning o'ziga xos tomonlarini ilmiy-uslubiy o'rganishni bugungi kunning o'ta dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko'rsatmoqdaki, mana shu muammo magistrlik disertatsiyamiz mavzusi sifatida tanlanganligi bejiz emasligidan dalolat beradi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, katta yoshdagilar jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotini kecha, buguni va ertasi haqidagi bilimlarni egallovchi va beminnat tarqatuvchi vakillaridir.

Bizning Respublikamizda andragogik ta'lim haqidagi fikrlar asrimizning boshlarida jaranglay boshladi. 2003 yil 6-7 iyun kunlari Alisher Navoiy nomidagi

Samarqand davlat universitetida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 27 yanvardagi 89-03-17 raqamli modemogrammasiga binoan Respublikamizda birinchi marta «Katta yoshdagilar uchun ta'lim» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi [IV. 1;17].

Konferensiyada Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Sirdaryo, Jizzax, Termiz, Navoiy va Samarqand shaharlari oliy o'quv yurtlaridan 40 nafar professor-o'qituvchilar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Shuningdek AQSh Indiana universiteti Yevroosiyo fakulteti professori Malik Xo'jayev, Germaniyaning Xolli Vestenberg universiteti qoshidagi Markaziy Osiyoni o'rganish ilmiy-tadqiqot institutlari professorlari o'z ilmiy ma'ruzalari bilan chiqish qilishdi.

Konferensiyada «Katta yoshdagilar ta'lim tizimini yaratish – davr talabi», «O'zbekistonda katta yoshdagilar ta'limini rivojlantirish yo'llari haqida», «Andragogika fani: istiqbol va muammolar», «Kattalar ta'limining ba'zi yo'nalishlari», «O'zbekistonda «Kattalar ta'limining konsepsiyasini ishlab chiqish masalalari» kabi dolzarb mavzulardagi ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.

Bu ilmiy-uslubiy konferensiya Respublikamizda andragogik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ilk jiddiy qadam bo'ldi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Ushbu fikrimizning dalili sifatida quyidagi ilmiy izlanishlar tahlilini keltirish o'rinlidir: Rahimov H. (O'zROO'MTV), Ibragimov X.I. Ahrorov Yu.A. (SamDU) "Katta yoshdagilar uchun ta'limda axborot texnologiyalari"[IV. 1;9-12] mavzusini yoritishgan. Mazkur izlanishda mualliflar respublikamizda birinchilardan bo'lib kattalar ta'limini rivojlantirishda masofali ta'limni tatbiq etishni taklif etishadi. G'aniyev F.S., Indiaminov N.N., Nazarov X.E. «O'zbekistonda katta yoshdagilar ta'limining yagona tizimini yaratish»[IV. 2;12-18]ni taklif etishadi. G'aybullayev N.R. (O'zMU), Indiaminov N.N., Qurbonov H., «O'zbekistonda kattalar ta'limi konsepsiyasini ishlab chiqish»[IV. 3;24-28]ni taklif etishadi; Musayev A., Abduvohidov S. (SamDU) "Kattalar ta'limi tarixi va uning istiqbollari"[IV. 4;28-31] haqida fikr bildirishgan. Xurramova S.H., Ahrorov Yu.A. (SamDU) katta yoshdagilarni o'qitish prinsiplarini yoritishgan[IV. 5;31-36]. Ostionov Q.N. (SamDU) andragogika fani istiqbollari va muammolarini matematika fani talablari

asosida yoritishga harakat qilgan [IV. 6;41-44]. Abduvohidov S.N.(SamDU), Kolesnik M.O.(SamDChTI) Samarqandlik pedagog olimlarining kattalar ta'limi haqidagi qarashlarini umumlashtirishgan [IV. 7;47-49]. Shodiyev N. (SamDU) Mamajonov B. (JizDPI) katta yoshdagilarni umumta'lim va kasbiy tayyorlashni oshirishda integrasiyaning o'rni [IV. 8;52-59]; Iskandarov E.I. (SamDChTI) uzluksiz ta'lim tizimida katta yoshdagilarni o'qitishning psixologik va uslubiy masalalari [IV. 9;59-62]; Yo'ldoshev B. (SamDU) kattalar ta'limida tilshunoslikning nazariy asoslari [IV. 10;74-77]. Norimov Sh., Barakayev M, Hayitboyev Q. (O'MKHTRI) katta yoshdagilarni kasbga qayta tayyorlash [IV. 11;77-79]; Razzoqov D.N. Qayumova D.Z. (O'MKHTRI) kattalar ta'limida yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash texnologiyalari [IV. 12;79-83]; Xayriyev I. (SamDU) katta yoshdagilar ta'limida milliy qadriyat tushunchalaridan foydalanish [IV. 13;83-87]; Xo'jayev M.S. (AQSh Indiana universiteti) katta yoshdagi AQSh fuqarolariga o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatish [IV. 14;87-90]; Elmurodov N. (SamDU) katta yoshdagilar ta'limida G'afur G'ulom ijodini o'rganish [IV. 15;98-100]; Mirzamahmudov T. (FarDU), Mirzamahmudova N.T. (TDPU) katta yoshdagilar ta'lim-tarbiyasida pedagogik mahorat masalalari [IV.16;100-103]; Sulaymonov M., Shodiyev F. (SamDU) katta yoshdagilarga psixologik bilim berishning ayrim masalalari muayyan darajada yoritilgan [IV.17;103-105].

Biroq, biz magistrlik dissertatsiya mavzusi sifatida tanlaganimiz Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazida andragoglarni tayyorlashning pedagogik asosida tizimli tarzda amalga oshirilmagan.

Bob yuzasidan xulosalar

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari tashkil etilgan bo'lib, hozirgi bosqichda ular ishini takomillashtirish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinishini taklif etamiz:

1. Kattalar ta'limini amalga oshirishda ixtiyorlik prinsipi:

a) Matematik-filologiya bilan qiziqsa - marhamat; filolog matematikani o'rganmoqchi bo'lsa - yo'l to'silmasin.

b) Yosh xususiyatiga ko'ra andragoglarni salomatlik darajasiga ko'ra emas, balki qiziqish va intilishiga ko'ra sinflarga bo'lish.

v) Dars beruvchilarni ularning o'z orasidan, eng tajribali, lidearlaridan tanlab, o'zaro muloqotni tashkil etish lozim.

2. Andragoglar tayyorlashda universitet zahirasi (professor-o'qituvchilar)dan samarali foydalanish. Ularni konkurs asosida 100% lik haq to'lash sharti bilan ishga jalb etish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida andragoglar tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi universitetlar qoshidagi MO va QT markazlari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Chunki O'zbekistonda katta yoshdagilar uchun ta'limni butun hayot mobaynida rivojlantirish zaruriyatini jamiyatimiz taraqqiyoti talab etmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va ta'lim texnologiyasining yanada takomillashib borishi iqtisodiyotning barqarorlashuviga zamin hozirlamoqda. Bu esa, madaniyatimizning ravnaq topishiga olib kelmoqda. Madaniy-ma'rifiy nufuzli jamiyatda mustahkam tayanch ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash – davr taqazosi. Bunday mutaxassis yildan-yilga o'z bilimi, ko'nikma va mahoratini chuqurlashtirishi va takomillashtirib turishi uchun yana o'qishi, ta'lim olishi lozim bo'ladi.

II BOB. PEDAGOGIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI TINGLOVCHILARIDA ANDRAGOGIK BILIM, KO'NIKMA, MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN, SHAKL, METODLARI

2.1. O'quv jarayonini loyihalashtirish

Andragogning ishida zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv rejani ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. O'quv reja amaldagi sharoitlar (vaqt davri, tashkiliy tuzilma, vositalarning mavjudligi va boshqalar) ni hisobga olgan holda uch asosiy masala: ta'lim mazmuni, qo'yilgan vazifalarga ko'proq mos bo'lgan o'qitish shakli, bu vazifalarni bajarish qobiliyatiga tegishli bo'lishi lozim.

O'qitish – bu rejalashtirilgan faoliyatdir: o'quv kursining mazmunini tanlash lozim, ya'ni tinglovchi kursni tugatganidan so'ng nimani qila olishi lozimligini hal qilish; amalga oshiriladigan amaliy mashg'ulotlarning turlarini tanlash (qo'yilgan vazifalarga erishish shakli nazarda tutiladi); o'quv reja faqat ta'lim muassasasining aniq sharoitlariga moslashtirilgandan so'ng amal qilina boshlashi hal qilinadi.

Bugungi kunda o'quv rejasi tushunchasi tinglovchiga o'qish imkonini berish uchun taklif etilayotgan barcha narsalarni qamrab oladi, ular: tamoyillar, metodlar va harakatlar, o'qitish va o'quv jarayonini baholash uchun zarur bo'lgan vositalar. O'quv rejasini yaratish ishning profiliga mos kelishi muhim va bunda tinglovchilar sifatli tayyorlanadi.

O'quv rejasining negizli elementlari

O'qitishning samaraliligi uchun o'quv rejasi quyidagi savollarga javob berishga imkon beradigan elementlar seriyasini o'z ichiga olishi lozim:

1. Nimaga o'qitish?
2. Kimni o'qitish?
3. Qanday o'qitish?
4. Nimani, qanday va qachon baholash?

Birinchi savolga javob o'quv rejasining maqsadni o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini o'z ichiga oladi (bu tushuntirish xati bo'lishi mumkin). Uchta

keyingisini o'quv amaliyotiga ko'rsatma bo'lib xizmat qiladigan xarakat rejasi deb atash mumkin. Shunday qilib, bu elementlar dars berish faoliyati va o'quv markazining sharoitlarini moslashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv jarayonini rejalashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'quv rejasini ishlab chiqish jarayoni

O'quv rejasining xarakteristikasi dasturiy xarakteristikadir, boshqacha qilib aytganda u harakat dasturiga olib boradi va o'quv rejasi qanday bo'lishi lozim bo'lsa, u yoki bu darajada o'shani aks ettiradi.

O'qitishni dasturlash – o'zining harakatlarini oldindan, ular birdaniga yoki qandaydir shablonli sxema bo'yicha yuz berishidan oldinroq yo'naltirishni bildiradi.

Dasturlash funksiyasi o'quv rejasining turli bosqichlari, fazalarini ishlab chiqishdan iborat.

O'qituvchilik ishining asosiy funksiyalaridan biri, o'quv rejasi mazmunini o'z vaqtida tayyorlash, tinglovchilarga o'zlarining oldiga qo'ygan vazifalarini o'zining darajasi, qobiliyati, qiziqishi, yoshi va ijtimoiy talablariga mos ravishda o'zining oldiga qo'yilgan vazifalariga erishishga imkon beruvchi maqsadlar, vositalar, metodlar va strategiyani aniqlashdan iboratdir. Muayyan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan har qanday insoniy faoliyatdagidek, o'qitish rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Amaliyotni shunday rejalashtirish kerakki, u imkon darajasida tezkor, obyektiv bo'lishi lozim, chunki, kattalar ta'limi kabi murakkab ish qaysidir alohida o'qituvchining istagi yoki tasavvuriga bog'liq bo'lishi mumkin emas, u imkon darajasida bir butun, ketma-ketli va samaraliroq bo'lishi lozim. Bundan, ta'lim sifatini ko'taradigan o'quv rejasiga bo'lgan ehtiyoj kelib chiqadi.

Yaxshi o'quv rejasining tavsiflari

Ta'lim jarayonidagi barcha sohalarining samaraliligi uchun o'quv rejasi quyidagi tavsiflarga ega bo'lishi lozim:

- uning elementlarining barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lash;
- qo'yilgan maqsadlarni aniq belgilash;
- tinlovchilarga butunlay moslashish, ularga o'zining darajasi, yoshi, statusi

va qobiliyatiga mos bo'lgan talablarni qo'yish;

- qo'yilgan vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan faoliyatni ko'zda tutish;
- o'qitishning turli metodlaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash;
- zaruriy o'quv materialini aniqlash;
- barcha faoliyat turlarini ular bajarilishi lozim bo'lgan muddatlarni hisobga

olgan holda rejalashtirish;

- qo'yilgan maqsadlarni baholash;
- erishilgan natijalarni tahlil qilishni ko'zda tutish;
- vazifani bajarish uchun yetarli darajada egiluvchan bo'lish.

O'quv rejani tuzishning bosqichlari

O'quv rejani tuzish jarayonining yetti fazasini belgilash mumkin:

1. Maqsadlarni belgilash.
2. Mazmunni belgilash.
3. Metodologiya.
4. Faoliyat turlari.
5. Resurslar va vositalar.
6. Muddatlar.
7. Baholash.

Maqsadlarni aniqlash

Maqsadlarni qo'yishning ma'nosi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish va tinglovchining muvaffaqiyatlarini baholashdan iborat. Muayyan kursni o'tgan tinglovchidan odatda quyidagilar talab qilinadi:

- O'rganilayotgan fanni bilishi va tushunishi.
- Darslarda qo'yilgan, lekin kerakli tushunilmagan muammolarning yechimlarini izlashda o'zining bilimlarni chuqurlashtirish.
- Muloqot erkinligi.
- O'zining ishida qo'llashi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar.
- Kasbiy ko'nikmalar yig'masi va ularni amalda erkin qo'llash qobiliyati.

Maqsadlar va ularning ifodalari tavsiflari

- Ta'lim oluvchilarning tavsiflariga mos ravishda ifodalanishi lozim. Mazmunga va harakat qilish odatiga javobgarlik.

- Baholash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ularning ifodasi baholash mezonlarini o'z ichiga olishi lozim.

- Ularning ifodasi dolzarb bo'lishi lozim.

- Oddiy bo'lishi lozim.

- Real bo'lishi lozim. Vaqt, vositalar, tinglovchilarning tavsiflarini hisobga olish lozim.

Maqsadlar turlari

Mazmun bo'yicha:

▪ O'zining abstraktligi bilan ajralib turadigan, ta'limning pirovard maqsadlari va uning falsafiy, ijtimoiy va andragogik asoslari bilan mustahkam bog'langan umumiy maqsadlar.

▪ Aniq maqsadlar – bu, umumiy maqsadlarga erishish uchun oshib o'tilishi lozim bo'lgan oraliq marralar.

▪ Operativ maqsadlar. Bajarilishi zarur bo'lgan harakatlarni aniqlashdan iborat.

Mazmunli tuzilma

O'quv rejasining tuzilmasi deganda nafaqat real dunyoni konseptual ko'rsatuvchi bilimlar, balki inson ushbu reallikni qabul qilishiga yordam beruvchi usullar ham tushuniladi.

O'quv predmeti dasturining tarkibiy qismlari bo'lgan mazmunning mantiqiy va tizimli ketma-ketligini doimo kuzatib borish lozim. Ular quyidagi shaklda tartiblashishi mumkin:

▪ Mavzuiy bloklarning tartiblashishi.

▪ Har bir blokda mavzularning aniqlanishi.

▪ Har bir mavzudagi savollarning aniqlanishi.

▪ Asosiy va qo'shimcha bibliografiya.

O'quv rejasining mazmunini ishlab chiqishda quyidagilar hisobga olinadi:

- kattalar ta'limi sohasida ilg'or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni muayyan ta'lim tizimiga qo'llash metodlari;

- kattalar ta'limi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashning tashkiliy tomonlari; fan, ishlab chiqarishdagi yangiliklar, zamonaviy texnologiyalar to'g'risidagi asosiy bilimlar;

- ishlab chiqarishning atrof muhitga ta'siri va uni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari;

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha zamonaviy jihozlarning funksiyalari va bu jihozlarda ishlashning texnologiyasi;

- mahsulot ishlab chiqarishning ergonomikasi va gigiyenasi;

- zamonaviy jihozlar va uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish.

Kattalarni o'qitish ta'lim dasturlari o'quv rejalari ikki blokka bo'linadi:

I blok – umumkasbiy bilimlar.

II blok– kasbiy faoliyat uchun tegishli bo'lgan maxsus bilimlar.

O'quv bloklari o'z navbatida o'quv modullariga bo'linadi. Har bir blok 6-12 soatga mo'ljallangan o'quv modullaridan iborat bo'ladi.

I blok quyidagi modullardan iborat:

1. Nazariy darslar va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish;

2. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash;

3. Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

4. Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni baholash;

5. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.

Ikkinchi blokning modullari kasbiy ta'lim dasturlari xususiyatidan kelib chiqib ish beruvchi tomonidan kasbga bo'lgan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

O'quv dasturlari alohida o'quv modullari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni, ularni o'zlashtirish ketma-ketligini aniqlaydi va tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqiladi.

O'quv dasturlari mazmunini ishlab chiqishda quyidagi elementlarga e'tibor

qilinadi:

- tushuntirish xatida o'quv modulining dolzarbligi, modulni o'qitish uchun sarf bo'ladigan vaqt, mavzular ro'yxati keltiriladi;
- o'quv maqsadlari va kutiladigan natijalarni belgilashda kurslarning tinglovchilari qanday bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari lozimligi aniq ko'rsatiladi;
- dasturning amaliy qismida o'quv mashg'ulotining o'tkazilish shaklidan (guruhli, individual va b.q.) kelib chiqib foydalaniladigan o'quv metodlari va vositalarining qisqacha tavsiflari keltiriladi. O'quv dasturi va modullarning tuzilmasi 1-ildovada keltirilgan.

2.2. Kattalar ta'limini tashkil qilishning shakl va metodlari.

O'quv jarayonini baholash

Kattalar ta'limining samaradorligi o'qitishni tashkil qilishning turli shakllari va metodlaridan oqilona foydalanish va ularni doimiy takomillashtirishga bog'liq. Ta'limning tashkiliy shaklini tanlash ta'lim oluvchilar faoliyatining maqsadlari va mazmuni, metodlari va uslublari, vositalari, ta'lim oluvchilarning faoliyat turlari, o'qituvchining kompetentligi, moddiy-texnikaviy jihozlanganligi bilan shartlangan.

O'quv faoliyatini ta'lim oluvchilar soni bo'yicha tashkil qilish quyidagilarga bo'linadi [III. 9. 34-b]:

- frontal (ta'lim oluvchilarning o'qituvchi rahbarligidagi hamkorlikdagi harakatlari);
- individual (ta'lim oluvchining mustaqil ishi);
- guruhli (o'qituvchining ta'sirini guruhning ijtimoiy-ta'lim oluvchi imkoniyatlari bilan qo'shib olib borilgandagi ta'sirini saqlaydi).

Kattalar ta'limining tashkiliy shaklini tanlashda ta'lim oluvchilarning yoshi va ularning individual xususiyatlari hisobga olinadi.

Guruhlardagi ishlar ta'lim oluvchilarning faolligini va o'zaro harakatlarini rag'batlantiradi. Ta'lim oluvchilar juftliklar yoki to'rt-yetti kishidan iborat kichik

guruhlarga bo'linadi. Topshiriqlar barcha uchun yagona yoki individual bo'lishi mumkin. Guruhlardagi ishlarning natijalari ta'lim oluvchilarning o'zlari tomonidan muhokama qilinadi va baholanadi.

Kattalar ta'limini tashkil etishning eng ko'p tarqalgan shakllari quyidagilar:

- *Dars* - vaqt chegaralarining aniqligi va o'qituvchi va ta'lim oluvchining muayyan o'zaro harakati sharoitlari bilan tavsiflanadi.

- *O'quv jarayonini auditoriyada tashkil qilish* – kattalar bilan turli kurslarda, lektoriyalarda, kasbiy ta'lim tizimida va boshqalarda ishlashda qo'llash o'rinlidir.

- *Seminarlar* – o'qitish mazmunining harakatchanligi va egiluvchanligi bilan ajralib turadi. Tor, lekin dolzarb mavzulardagi maqsadli qisqa muddatli (bir-besh kunlik) seminarlar yuqori samaralidir.

- *Fakultativ mashg'ulotlar va tanlov kurslari* — majburiy fanlar bilan birgalikda ta'lim oluvchilarning istaklari bo'yicha fanlarni o'rganish. Ular o'quv dasturini o'quv maqsadlari mazmunining u yoki bu yo'nalishida chuqurlashtirib o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Ular oddiy mashg'ulotlar shaklida ham, ekskursiyalar, seminarlar, “dumaloq stollar” va b.q.lar shaklida ham o'tkaziladi.

- *Maslahatlar* — alohida mavzularning chuqurlashtirib o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradi, o'zlashtirmaslikning oldini oladi. Ular o'quv vaqtdan tashqaridagi vaqtda ta'lim oluvchilarning fakultativ mashg'ulotlar mazmuniga kirmagan savollari shaklida o'tkaziladi. Rejalashtirilgan yoki zaruratga ko'ra guruhli yoki individual bo'lishi mumkin. Maslahatni suhbat yoki mustaqil bajarilgan topshiriqning muhokamasi shaklida o'tkazish mumkin.

- *Ishlab chiqarish amaliyoti* — shakllangan bilim va ko'nikmalar, ish jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni amalga oshirish, ularni real voqe'likka “bog'lash”. Bilish jarayonining tashkil qilinganligi va boshqaruvchanligiga amaliyot dasturining amalga oshirilganligi, kundalikni yuritish, amaliyot (uning borishi, mazmuni, natijalari) to'g'risidagi hisobot tuzilganligi orqali erishiladi.

- *Uydagi o'quv ishlari* — auditoriyada egallangan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni mustaqil egallash, mustahkamlash, mustaqil o'qish malakasini, irodani, xarakterni rivojlantirish. Auditoriya mashg'ulotlarni to'ldiradi va o'quv

siklining bir qismini aks ettiradi.

Uy ishlari oxirgi davrda (alohida katta yoshdagi auditoriya uchun) katta ahamiyat kasb etmoqda. Uning natijaviyligi mustaqil ishlar va o'z-o'zini nazorat qilish, o'qituvchining yordamini optimallashtirish va nazorat qilish ko'nikmalarini aniqlaydi. Uy ishlarining hajmini bo'lib chiqish, vazifalarni, ularni muvaffaqiyatli yechish bo'yicha mezonlar va tavsiyalarni, tekshirish va baholashni aniq shakllantirish lozim.

O'qituvchi-andragogning tashkiliy ishlari ta'lim dasturining tinglovchilari tomonidan muvffaqiyatli o'zlashtirilishi uchun sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Bob yuzasidan xulosalar

Mazkur bobda pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlarida katta yoshdagi ta'lim oluvchilarda andragogik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning shakl va metodlari, o'quv jarayonini loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etildi.

Ta'lim oluvchilar andragog ko'magida u yoki bu ijtimoiy tizim sohasiga talab tadigan bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlar hajmi, ko'lamini aniq ishlab chiqilgan kasbiy tavsifnomalar shaklida bo'lishi mumkin. Shuni alohida aytib o'tish lozimki bu sohadagi kasbiy klassifikatorlar, kasbiy tavsifnomalar deyarli barcha fanlar bo'yicha yaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlaridagi fanlar bloklarida o'z aksini topgandir.

III BOB. ISHSIZLAR, IKONIYATI CHEKLANGAN KATTA YOSHDAGILARNI O'QITISHNING ALOHIDA XUSUSIYATLARI

3.1. Ishsizlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari

Kasb-hunarga o'qitishni tashkil qilish bo'yicha ishlarda ishsizlarga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida «o'n olti yoshdan oshgan, nafaqa yoshiga yetmagan, ish va daromadga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, mahalliy mehnat organlarida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan, mehnat qilishga, kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorgarlik va malaka oshirishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli shaxs ishsiz deb tan olinadi» [III. 12].

Kasbiy tayyorgarlik natijasida ishsizlar yangi bilim va malakalarni egallashlari, yangi kasbiy rivojlanishdagi individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos bo'lgan o'z yo'llarini muvaffaqiyatli o'tishlari lozim. Ish qidiruvchi shaxslar duch keluvchi muammolarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning eng muhimlari bu toifadagi katta yoshlilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq.

Ishsizlarni kasb-hunarga o'qitishni tashkil qilish va uning mazmuniga ko'pgina mezonlar ta'sir qiladi, ularning ichida, potensial ta'lim oluvchilar sifatidagi va ish joyini izlovchilar sifatidagi ishsizlarning ijtimoiy-demografik va shaxsiy xususiyatlari eng katta qiymatga ega. Ularga nafaqat o'zgaruvchan, balki hududiy xarakterga ega bo'lgan mehnat bozori ehtiyojlarining xususiyatlari ham kiradi.

Ishsizning ijtimoiy-psixologik portreti

Ishsizlikning sabablari ichida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Shtatlarning qisqarishi yoki korxona, tashkilotning tugatilishi (bo'shab qolganlar);
2. O'z xohishiga ko'ra ozod qilish;
3. Ko'p vaqt ishlamagan;
4. Ta'lim muassasasini (OTM yoki kollej) tugatgan;
5. Kasbi yo'q.

Birinchi guruhdagi ishsizlar ichida bandlik xizmatini boqimandalik bilan qabul qiluvchi shaxslar ko'pchilikni tashkil qiladi, ikkinchi guruhda ideallashtirilgan tasavvurlar ilg'orlik qiladi, chunki bandlik xizmatlari insonni unda mavjud bo'lgan kasb orqali ishga joylashtirishga majbur degan tasavvurlar tarqatilgan bo'lib, bunda uning kasbiy mehnatiga bo'lgan bozorning talabi odatda e'tiborga olinmaydi. Katta yoshdagi kishilarda yaqqol infantillik va boqimandalik, salga xafa bo'lishlik pozitsiyasi paydo bo'ladi: ularga nimanidir kamroq berishgan, kimdir ularga qarzdor, ularning yaqqol shaxsiy va ijtimoiy faolligi yo'q. Bunday ishsizlarda passivlik, sarosimalilik, **frustratsiyalanganlik**, uning uchun to'satdan o'zgargan ijtimoiy-iqtisodiy reallikka moslashish qobiliyatining yo'qligi kuzatiladi. Mana shundan, insonga, uning uchun murakkab va to'satdan o'zgargan holatda davlat tashkilotining (uning vakillari) yordam ko'rsatishi lozimligiga umid kelib chiqadi. Lekin ular, bandlik xizmati birinchi navbatda o'zining faoliyatida mehnat bozoridagi professional mehnatga bo'lgan talabga bo'ysunishini va faqat shu talab doirasida ishsiz odamga real yordam ko'rsata olishini hisobga olmaydilar.

Frustratsiya - (lot. Frustratio — aldov, omadsizlik, natijasiz kutish, rejalar, niyatlarning buzilishi) – u yoki bu ehtiyojlarni qondirishning real yoki kutilayotgan darajada mumkin emasligi sharoitida paydo bo'ladigan psixik holat [III. 19].

Uchinchi guruh namoyandalari ikkita birinchi va oxirgi guruh o'rtasidagi oraliq o'rinni egallaydilar, chunki ularning talablari har doim ham mehnat bozori talablari va bandlik xizmatining imkoniyatlariga mos kelmaydi. Masalan, ko'pchilik oliy ma'lumotli ishsiz ayollar bank xodimiga qayta ixtisoslashishni xohlaydilar, lekin bu kasbga bo'lgan ehtiyoj anchagina chegaralangan, yoki buning teskarisi, chet tillardan tarjimonlarga ehtiyoj mavjud, lekin bu mutaxassislarni tayyorlash ko'p vaqt va moliyaviy harajatlarni talab qiladi, bu esa bandlik xizmatlarining iqtisodiy imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydi.

To'rtinchi va beshinchi guruh ishsizlari bandlik xizmatlari xodimlari nuqtai nazaridan eng yuqori qiziqish uyg'otadi. To'rtinchi guruh namoyandalari bandlik xizmatlarining maqsad va vazifalarini, imkoniyatlarini tushunadilar, malakali

mehnatni hisobga oladilar va unga bo'lgan talab bilan qiziqadilar. Ular, bozor ehtiyojlari sharoitida o'zlarining fikrlari bo'yicha, yaxshi daromad olish uchun ishga joylashishga va har qanday ish yoki kasbga qayta o'qishga tayyordirlar.

Beshinchi guruh ishsizlari bandlik xizmatlaridan hech qanday yaxshilik kutmaydilar va o'zlarining ishga joylashishlarida faqat o'zlari yordam berishlari mumkin deb hisoblagan holda kutib turadilar va ularga taklif qilingan tavsiyalar va yechimlarni bosiqlik bilan qabul qiladilar, modomiki, bandlik xizmatida ro'yxatdan o'tgan ekanlar, hech bo'lmasa, uning talablariga rasmiy amal qiladilar. Bu kishilar ijtimoiy va shaxsiy faollikka egalar, psixologik jihatdan o'zlariga ishonadilar.

Ishsizlar bilan ishlashda quyidagi mezonlarni ham hisobga olish lozim:

Agar birinchi bosqichlarda ishsiz enargiyasini yig'ib olishga, ish qidirish usullarini yangilashga harakat qilsa, unda keyingi bosqichlarda u o'zining harakatlari va hissiyotlari ustidan nazorat qilishni yo'qotishga boshlaydi, bunda qo'rquv va tushkunlik kutilmagan hissiy portlashlar (agressiya, qahr-g'azab, qayg'u)ga almashadi. Ko'pchilik hayotga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi va depressiv holatga tushadi.

Ishsizlar duch keladigan keyingi muammo bu bo'sh vaqtni tashkil qilishdir. Agar ishsizlar o'z vaqtini tashkil qila olmasalar yoki uni qandaydir to'ldira olmasalar, ular turli xil buzilishlarga ko'proq duchor bo'ladilar. Ishsizlarning ko'ngil ochar tadbirlarga kam vaqt ajratishlari, ko'proq chekishlari aniqlangan. Ularning vaqtlarining ko'proq qismi "tashkil etilmagan" bo'lib qoladi (televizor ko'rish, gazeta o'qish, bema'ni suhbatlar, do'konlarda bemaqsad yurish)[III. 9].

Uzoq muddat ishsizlikdan so'ng ba'zilar tanazzulga tushadilar: alkohol ichimliklaridan o'zlarini tiya olmaydilar, ish topish o'rinishlaridan voz kechadilar, vaqtlarini bekorga sarflaydilar. Ishsizlikning eng salbiy tomonlaridan biri – ishchan aloqalarning va neformal munosabatlarning qisqarishidir.

Bundan tashqari, shuni hisobga olish lozimki, masalan, ishsiz erkaklar va ayollar o'rtasida ham farq bor. Ishsiz erkaklarda ijtimoiy dadillik ko'rsatgichi

ayollarnikidan pastroq, lekin amaliylik ko'rsatgichi balandroq, ya'ni ishsiz erkaklar ko'proq tortinchoqlikka ega va pragmatikroqdir.

Ishdan bo'shab qolgan ishsizlarning o'zining bo'shaganligiga xafa bo'lishi va xafa bo'lmasligi bilan farqlanuvchi psixologik xususiyatlari ham bor. Birinchilarida hissiy beqarorlik darajasi yuqori, o'z-o'zini nazorat qilish darajasi yuqori emas, ularda frustratsiya ko'rsatgichi ikkinchilarnikidan yuqori.

Doimiy ish xaqi oladigan xizmatchilar, ishining yo'qotilganidan ishbay ishlayotganlardan ko'proq aziyat chekadilar. Xizmatchilarga boshqa ish topish qiyinroq, ular uchun ishsizlik vaqtinchalik qiyinchilik emas, balki ular yillar davomida yengib o'tolmasligi mumkin bo'lgan shaxsiy falokat bo'lishi mumkin. Ko'pchilik mavsumiy ishchilar esa, ishsizlik uchun beriladigan nafaqadan qoniqadilar. Ishdagi majburiy tanaffusdan ular dam olish uchun foydalanadilar.

Ishsizlar bilan ish olib boradigan mutaxassis katta yoshdagilarning anchagina turli xildagi kategoriyasiga duch keladi. Ular paydo bo'ladigan holatlarga turlicha munosabat ko'rsatadilar, uni turlicha hal qiladilar. Bu inson qaysi sabab bilan ishsiz qolgani (o'z xohishiga ko'ra yoki majburan), qancha vaqtdan beri ishlamasligi, qanchalik moddiy ta'minlanganligi va hokazolarga bog'liq.

Shuning uchun muhim masalalardan biri tinglovchilarda o'ziga va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni tiklashga qaratilgan xayrixoh muhitni yaratishdir. Barcha bilan (javob reaksiyalarining xarakteridan qat'iy nazar) bir tekisda va manfaatdorlikda muomala qilish psixologik yuklamalarning bosimini bo'shashtirish imkonini beradi.

Tanishish jarayonining o'zida u yoki bu yordamni ko'rsatish zarurati aniqlanadi, bular: psixolog bilan suhbat, mehnat bozorida mavjud bo'lgan vakansiyalar bo'yicha individual maslahat yoki kasbiy tayyorgarlik kurslariga yuborish to'g'risida masalani hal qilish bo'lishi mumkin.

O'z navbatida, o'qitish qo'shimcha stress bo'lishi mumkin emas, shuning uchun insonning ichki resurslarini faollashtiruvchi muvaffaqiyat muhitini yaratish

juda muhimdir. O'rganish o'ta yengil, o'ta qiyin bo'lmasligi lozim, chunki ikkala holda ham u o'zining safarbarlik ahamiyatini yo'qotadi.

Kasbiy ta'lim "shaxsiy malakaning" oshishi, ya'ni, jamoada bir-biriga munosabat qilish, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish, javobgarlikni o'ziga olishi, xatolardan tajriba chiqarib olish kabi malakalar bilan to'ldirilishi lozim.

Shunday qilib, ishsizlar bilan ish olib boradigan mutaxassislar o'quv holatlarini psixologik optimistik holatga aylantira borib, muayyan ma'noda psixoterapevt funksiyalarini ham bajarishlari lozim.

O'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari

O'quv jarayonini tashkil qilishda shuni esda tutish lozimki, barcha ishsizlar – turli yoshdagi, turli ma'lumotga ega bo'lgan, jismoniy va psixologik holatdagi, turli hayot tajribasi va iqtisodiy tushunchalarga ega bo'lgan kishilardir.

Turli shakl va o'qitish metodlaridagi kurslar taklif etilishi lozim bo'lgan bir necha xil guruhlarini ajratib olish mumkin:

1. Guruh – 16-25 yoshdagi yaxshi nazariy bazaga, kasb-hunar yoki oliy ta'limga ega bo'lgan, lekin ish tajribasi bo'lmagan shaxslar (boshqa ta'lim muassasalariga o'qishga kirmagan akademik litseylar bitiruvchilari, kollejlari, oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari);

2. Guruh – yoshi 25 dan oshgan, muayyan kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, ish beruvchi, bandlik xizmatlari tomonidan o'qishga yuborilgan yoki mustaqil ravishda o'qishga kirgan ishsizlar va band bo'lmagan aholi;

3. Guruh – o'zining ishini (kichik va o'rta firmalar tadbirkorlari, fermalar) ochishga intilayotgan va o'z-o'zini band qilishga tayyorlayotgan shaxslar;

4. Guruh – salomatligining holati ochiq mehnat bozorida ish topish imkonini bermaydigan va mehnat qilish qobiliyati cheklangan shaxslar [III. 9].

Guruhni shakllantirishda avval olingan ta'lim va kasbiy tajribaga e'tibor berish lozim. Bir ixtisoslikni olayotgan guruh ichida turli xil ijtimoiy (sobiq harbiy xizmatchilar, ko'chib kelganlar, aholining kam himoyalangan qatlamlari), ta'limiy

(umumiy o'rta, boshlang'ich va o'rta kasb-hunar, oliy kasbiy ta'limga ega), professional (ishchi, xizmatchi, muhandis, rahbar) statusiga, jamoaga bo'lgan shakllangan munosabatlariga, odatlarga stereotiplarga ega bo'lgan kishilar bo'lishi mumkin. Bunda guruhlardagi tinglovchilarning yoshi o'rtasidagi farqlar 30 va undan ortiq yoshni tashkil etishi mumkin.

Bundan tashqari, an'anaviy erkaklar kasblari (haydovchilar, payvandlovchilar, fermerlar) guruhlarida ayollarning ham o'qiy boshlaganligi, 45-50 yoshdan oshganlar uchun ba'zi kasblarni egallashda bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish qiyin kechishini hisobga olish lozim.

O'quv guruhlarida mehnatga layoqati passiv bo'lgan shaxslarning bo'lishi nafaqat o'ziga nisbatan alohida diqqatni, balki o'qitishga individual yondashishni ham talab qiladi. Usta yoki o'qituvchi o'quv vaqtining bir qismini bunday tinglovchilar bilan mashg'ulot o'tkazishga sarflashi lozim, bu esa boshqa tinglovchilarning o'quv natijalarida ham darhol namoyon bo'ladi. Shuning uchun bir guruhda bunday tinglovchilarning bir nechtasi bo'lishi lozim, imkon bo'lganda esa, ularning individual o'qishlarini tashkil etish yaxshiroqdir.

Esda tutish lozimki, guruhlarning statusli tarkibini o'rganmay turib, hatto malakali o'qituvchi ham faollikning pasayishi, qiziqishning yo'qligi, o'z-o'zini past baholash kabi hodisalarga to'qnash keladi.

Guruhni shakllantirishda bo'lajak tinglovchilarga barcha qiziqtiruvchi savollar kiritilgan anketani taklif qilish maqsadga muvofiq (2-ilova). Bundan tashqari, har bir kishi bilan uning motivatsiyasi, o'qishga tayyorligini aniqlash uchun suhbat o'tkazish muhimdir (3, 4-ilovalar).

O'quv guruhlarini shakllantirish bilan bog'liq ishlarni o'tkazish jarayonida tinglovchilarning istaklari, nazariy bilimlari va amaliy tajribalari hamda ish beruvchining talablari hisobga olingan holda o'quv rejalari va dasturlarini to'g'rilash lozim. Tinglovchilar o'zlarining istaklarini o'qituvchilar va kurslarning rahbarlari bilan individual suhbat vaqtida aytishlari mumkin. Kasbiy tayyorgarlikning eng murakkab turlari bo'yicha, tinglovchilarga alohida talablar qo'yiladigan hollarda (masalan, oliy yoki o'rta maxsus ta'lim ma'lumoti), kasbiy

tayyorgarlik sifatini tekshirish uchun anketalashtirish yoki testlar o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Shuni hisobga olish lozimki, ishsizlar bilan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarida bilimlarni bir tomonlama berishni ko'zda tutadigan an'anaviy ma'ruzalarni o'qish ta'lim oluvchilar tomonidan passiv tinglovchilar sifatida o'quv materialining o'rtacha 20-30 % o'zlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun o'qitishning turli metodlari va shakllari: ma'ruza munozaralar, ish o'yinlari, dumaloq stollar, aqliy hujumlar, guruhli muhokama, seminarlar, laboratoriya-amaliy ishlaridan foydalanish zarur[III. 20].

O'qitishning turli faol shakllari va metodlaridan foydalanish nafaqat bilimlarga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularni takomillashtirishga bo'lgan intilishni oshirishga yordam beradi, balki o'qituvchi-andragogdan yuqori professionallikni talab qiladi.

Doimo esda tutish lozimki, ishsizning yoshi, ma'lumoti, kasbiy va hayotiy tajribasidan qat'iy nazar, kattalar ta'limining alohida – mashg'ulotlarni demokratik muloqot tamoyillari asosida qurishdek xususiyatini ajratib olish mumkin. 5-ilovada katta yoshdagi ishsizlar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kunduzgi va sirtqi o'qishni tashkil qilish, qo'shimcha mashg'ulotlar va maslahatlarni o'tkazish, alohida tinglovchilar uchun amaliy mashg'ulotlar hajmini ko'paytirish o'quv jarayoni samaradorligini kuchaytirishga yordam berishi mumkin.

Katta yoshdagi ishsizlarni o'qitishda avvalambor, kasbiy ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratilishi lozim, buning uchun o'qituvchi-andragog rahbarligida tinglovchilarning katta hajmdagi mustaqil ishlarini o'z ichiga olgan jadallashtirilgan dastur bo'yicha o'qitilishi zarur.

O'quv guruhlarida turli yoshdagi, turli ta'lim darajalaridagi, hayotiy va amaliy tajribaga ega bo'lgan tinglovchilarning mavjudligi, hamda tayyorlov yo'nalishlari, tashkiliy shakllar va metodlaridan kelib chiqib, imtihonlarning turli an'anaviy va noan'anaviy shakllari va metodlarni qo'llash maqadga muvofiqdir.

Ularga quyidagilarni kiritish lozim:

- bilet bo'yicha savollar;
- ekstern;
- ishlab chiqilgan referat bo'yicha hisobot;
- kichik korxona va o'z-o'zini band qilish uchastkasi faoliyatining hisoboti;
- mustaqil faoliyatga tayyorlikni nazorat qilish bilan birgalikdagi ish o'yini;
- mahsulot, maket, prichyoska va boshqalarning namunalarini taqdim qilish yoki ularni tayyorlashni ko'rsatish;
- bevosita ish o'rnida imtihon;
- o'z nazariyasini (g'oyasini, amaliyotini, faoliyatini) imtihon komissiyasi oldida himoya qilish;
- testlash;
- ikki-uch ixtisoslik bo'yicha imtihonlar majmuasi.

Murakkab bo'lmagan imtihonlarga, malaka qanday yo'l bilan (kurslardagi mashg'ulotlarda, mustaqil ta'limda yoki biror boshqa yo'l bilan) olinganidan qat'iy nazar, barcha xohlovchilarni qo'yish maqsadga muvofiq.

Ishsizlarni kasbiy o'qitishning vazifasi va natijasi ular tomonidan yangi bilim va malakalarni egallashdangina iborat bo'lmay, balki ularda o'z individual imkoniyatlari va ehtiyojlarga mos bo'lgan yangi kasbni egallashga bo'lgan motivatsiyaning shakllanishi, yangicha kasbiy shakllanishda o'zining yo'lini aniqlash va undan o'tishidan iboratdir. Shuning uchun ishsizlarni kasbiy tayyorlashning muhim vazifasi, shaxsning ijtimoiy o'zaro munosabatga, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ijtimoiylashuv va faol moslashuv qobiliyatining rivojlanishi uchun optimal sharoitlar yaratishdan iboratdir.

3.2. Imkoniyati cheklangan katta yoshdagilarni o'qitishning alohida xususiyatlari

“Nogiron (invalid)” atamasi lotincha ildizga ega (valid – ishchan, faol, mukammal, qudratli). Harfma-harf tarjima qilganda “yaroqsiz, chala, to'liqmas” so'zlarini bildirishi mumkin. Shu nom bilan kasallik, yaralanish yoki mayiblik natijasida harbiy xizmatni o'tay olmagan, shu sababdan fuqarolik lavozimlariga yuborilgan harbiy xizmatchilarni atashgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu atama urush qurbonlari bo'lgan fuqarolarga ham taalluqli bo'lgan. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng «invalid» tushunchasining barcha jismoniy, psixik yoki intellektual hayotiy cheklanganligiga ega bo'lgan shaxslarga taalluqli shakllanishi yuz berdi [III. 19].

Hozirgi vaqtda invalidlar funksiyasining cheklanganligini quyidagi kategoriyalarga bo'lish qabul qilingan:

- harakat funksiyalarining buzilishi;
- qon aylanish, nafas olish, ovqat xazm qilish, chiqarish, modda va energiya almashuvi, ichki sekretsiyalar funksiyalarining buzilishi;
- sensorli (ko'rish, eshitish, hidlash, sezish);
- psixik (qabul qilish, diqqat, xotira, tafakkur, so'zlash, hissiyotlar, iroda).

O'zbekistonda “nogiron (invalid)” deb, jismoniy va aqliy yetishmovchiliklar natijasida hayot faoliyati cheklangan va ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxslar tushuniladi.

“Shaxs hayot faoliyatining cheklanishi o'z-o'ziga xizmat qilish, harakat qilish, mo'ljal olish, muomala, o'z xulqi ustidan nazorat hamda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyati yoki imkoniyatining butunlay yoki qisman yo'qotilishi bilan ifoda qilinadi”[III. 7].

Dunyoning rivojlangan davlatlarida nogironlarning ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarini ta'minlash muammosiga katta ahamiyat beriladi. Ta'lim olish nogironga o'z hayotining qadriyatini va ijtimoiy ahamiyatini qaytadan ko'rib chiqish, o'ziga shaxs sifatida ijobiy qarashni shakllantirish, o'zining mumkin bo'lgan yutuqlarining kelajagini ko'rish, kelajakka rejalar qurishga yordam beradi.

Katta yoshdagi nogironlar hayotida ta'lim turli xildagi **maqsadli yo'nalishga** ega bo'lishi mumkin:

- **mavjud ta'lim senzini ko'tarish;**
- kasbiy tayyorgarlik;
- ijodiy potensialni amalga oshirish;
- intellektual rivojlanish;
- nogironlik holatiga moslashish;
- ijtimoiy-jamoat faoliyatiga kirishish va b.q.

Kasalliklar olib keladigan tabiiy sabablar tufayli nogironlar umumiy yoki kasbiy ta'lim olishda ma'lum qiyinchiliklar bilan to'qnashadilar.

Bu qiyinchiliklarning xarakteri quyidagi jadvalda keltirilgan[III. 7]:

Qiyinchiliklar	Qiyinchilikning xarakteri
<i>jismoniy</i>	O'quv ishlariga kirishishni qiyinlashtiruvchi jismoniy kamchiliklar va cheklovlar
<i>psixologik</i>	Ta'lim olish va davom ettirishga bo'lgan maqsadning yo'qligi, o'zini boshqalar uchun qiziqarli shaxs sifatida yetarli baholamasligi, muvaffaqiyatli o'quvchi pozitsiyasini egallab olishi
<i>ijtimoiy</i>	O'z ma'lumotiga mos ta'lim olish va ishga joylashish xuquqini amalga oshirishi, olingan bilim va malakalarni ijtimoiy amaliyotda qo'llashining real kelajagini tushuna olmasligi
<i>ta'limiy</i>	Bilimlarida jiddiy kamchiliklarning mavjudligi, o'qishda uzoq muddatli tanaffus borligi, o'rganish va o'z-o'zini o'qitish ko'nikmalarining yo'qligi
<i>Axloqiy-irodaviy</i>	Ruhiiy kuchini ko'rsatish, o'qitishning natijaviyligi uchun irodaviy kuchini berishi

Nogironning ijtimoiy-psixologik portreti

Ko'pchilik ishsiz nogironlarda, hattoki mavjud bo'lgan vakansiyalardan voz kechishga olib keladigan beo'xshov, amaliy bo'lmagan tushunchalarning shakllanishi kuzatiladi. Bunda mustaqil ish qidirish nuqtai nazaridan ularning passivligi ko'pgina takliflardan voz kechishga tayyorlik bilan birga qo'shiladi.

Nogironlardagi yaxshi ish to'g'risidagi tasavvurlar o'zining xususiyatlariga ega. Umuman olganda ular ishga joylashishning sharoitlariga qattiq talablar qo'yadilar. O'zlariga xos bo'lmagan (yuqori ko'tarilgan yoki pastlangan) baho berish, ba'zida nogironning kasbiy malakasiga va tajribasiga mos bo'lmagan (yuqori ish haqi, "yumshoq" ish tartibi, avvalgi kasbini yengillashtirilgan sharoitlarda saqlash) beo'xshov darajadagi da'volarni qilish kuzatiladi. Nogironlar mehnat bozoridagi holatdan, o'zlarining mehnat qilish imkoniyatlaridan yaxshi xabardor emaslar, odatda malakalarni o'zgartirishga salbiy yondashadilar. Ko'pchilik nogironlar o'z kasalliklariga noto'g'ri munosabatda bo'ladilar, bu esa kasallikka kirib ketish, kasallikning ko'rinishlarini bir joyga to'plashlik, muloqot doirasining torligi, ijtimoiy qadriyatlar va qiziqishlarning pasayishiga olib keladi. Mehnat faoliyatiga noto'g'ri munosabatlar va motivlar kuzatiladi. Shuning uchun, munosabatlar va motivlarni to'g'rilash ularning mehnat faoliyatiga kira turib, kasbiy ta'lim olishlari imkoniyatini ma'lum darajada oshirishi mumkin [III. 22].

O'quv jarayonini tashkil qilishning xususiyatlari

Mavjud cheklanishlar xarakterining o'zi (markaziy nerv tizimi bilan bog'liq bo'lgan ko'rish, eshitish, so'zlash, tayanch xarakat apparati va h.k.) va insonning o'z hayot tarzini tashkil etishdagi mustaqilligi darajasi ta'lim ehtiyojlari, nogironlarning u yoki bu guruhlarining ta'limiy maqsadlari va usullariga bo'lgan ehtiyojlar xususiyatini keltirib chiqaradi. Nogironlarning ijtimoiy guruhlariga mavjud **deprivatsiyalarga** bog'liq ravishda turli shakldagi kasbiy ta'lim olish xuquqi berilgan.

Deprivatsiya (lot. *deprivatio* — yo'qotish, mahrum qilish) — odamlar o'z ehtiyojlarining yetarli qondirilmayotganligini his qiladigan psixik holat. Sotsiologiyada absolyut va nisbiy deprivatsiya atamalari qo'llaniladi [III. 19].

Absolyut deprivatsiya — individ yoki ijtimoiy guruhga asosiy moddiy ne'matlar va ijtimoiy resurslariga: oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy, tibbiy xizmat, ta'lim va b.q. kirish imkoniyati yo'qligi tufayli o'zlarining muhim ehtiyojlarini qondirishlarining imkoni yo'qligi [III. 19]..

Nisbiy deprivatsiya “qadriyatli umidlar” (odamlarning o’ylashicha, haqiqat bo’yicha) va “qadriyatli imkoniyatlar” (odamlarning o’ylashicha ular olishi mumkin bo’lgan ne’matlar va yashash sharoitlari) ning subyektiv qabul qilinadigan va og’riq bilan kechiriladigan bir biriga mos kelmasligini o’zida aks ettiradi [III. 19].

O’zbekiston Respublikasi “Nogironlarning ijtimoiy himoyalanganligi to’g’risidagi” Qonunining 26-bandida keltirilganki: “Nogironlarning ta’limi, kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish turli shakllarda, jumladan, kunduzgi va sirtqi shakllarda, ekstern orqali, maxsus guruhlar, sinflar va individual o’quv rejalari bo’yicha, uyda o’qitishni ham hisobga olgan holda amalga oshiriladi” [III.7].

Hozirgi kunda nogironlarni boshlang’ich, o’rta, oliy, qo’shimcha kasbiy ta’lim doiralarida o’qitish uchun tuzilmalarga ega bo’lgan ta’lim muassasalari ro’yxati kengaymoqda.

Katta yoshdagi nogironlarni o’qitish modeli turli xil bo’lishi mumkin, ularni tanlash esa hayot faoliyati cheklangan shaxslar guruhlariga xususiyatlariga bog’liq. Tug’ilganida nogiron bo’lganlar bolalik va o’smirlik davrlarida o’z holatlariga qaysidir ma’noda moslashishlari mumkin. Kasallik, baxtsiz hodisa, harbiy xarakatlardagi ishtiroki natijasida nogiron bo’lib qolgan katta yoshdagilarning xotirasida nogironlikda bo’ladigan cheklovlarsiz hayot tajribasi mavjud bo’ladi. Bu ham nogironlarni o’qitish strategiyasidagi ma’lum farqlarni belgilab beradi.

Bugungi kunda jahonda nogironlarni o’qitishning bir nechta metodikasi mavjud bo’lib, ular sirasiga quyidagilar kiradi:

Integrallashtirilgan o’qitish – nogironlarni barcha bilan barobar oddiy ta’lim muassasalarida o’qitish ko’zda tutiladi. Ijobiy tomonlari – tengdoshlari bilan muloqot va “oddiy hayotda” ishtirok etishi orqali nogironlarni ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiya qilish imkoniyati, turli xil komplekslarning paydo bo’lishi va rivojlanishi xavfi, yaqqol ko’rinadigan buzilishlarga ega bo’lgan – kuchsiz ko’ruvchi, kuchsiz eshituvchi va rivojlanishdan orqada qolgan nogironlar uchun o’quv jarayonini yo’lga qo’yishdagi texnik murakkabliklar.

Alohida o'qitish – nogironlarni maxsus ta'lim muassasalarida – internatlarda o'qitishni ko'zda tutadi. Ijobiy tomonlari – kasallikning xususiyatlarini va nogironning o'quv jarayonini tashkil etishdagi qobiliyatlarini maksimal darajada hisobga olish imkoniyati, salbiy tomoni – nogironlarning jamiyatga keyingi moslashuvining murakkabligi, muloqotdan qo'rqishning rivojlanishi.

Qo'shimcha ta'lim - nogironlarning mustaqil birlashmalari negizida asosan kasbga o'qitish seminarlari, treninglar va kurslarning tashkil etilishini ko'zda tutadi. Ijobiy tomonlari – kasbiy ta'limning yuqori samaradorligi va o'quv jarayonini nogironlarning imkoniyatlariga moslashtirish, salbiy tomoni – qo'shimcha moliyaviy mablag'larni talab qiluvchi qimmatbaho jihozlarni sotib olish zarurati.

Tanlab olingan metodikalardan qat'iy nazar, nogironlarni o'qitish quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- *gumanizm* (insonning o'z bahosini tan olishi, rahm-shavqat, hamdardlik, hayot faoliyati cheklangan insonlarni qo'llab-quvvatlash);
- *rivojlantirish* (nogironlarni cheklovlarga (ularni yengib o'tish o'zida rivojlantiruvchi ma'noga ega bo'lganda) qaramay individual o'qitish));
- *sheriklik* (o'qitishning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro qiziqish va hamkorlik);
- *dav'at qilinganlik* (hayot faoliyatining bir qismi sifatidagi o'qitishga faol kiritish);
- *moslashganlik* (so'z bir tomondan, insonning cheklanganligi xususiyatlariga maksimal moslashgan, ikkinchi tomondan, nogironlarni ijtimoiy tomondan mahsulli holatga moslashtiruvchi axborotli-kommunikativ tizim to'g'risida ketadi) [III. 9].

Kattalar ta'limining real amaliyotida birinchi o'ringa quyidagi funksiyalar chiqadi:

- *kompensatorli* (rivojlanishning, kasbiy tayyorgarlikning qo'ldan chiqarilgan yoki amalga oshirilmagan imkoniyatlarini, hayot faoliyati cheklanganligi holatining noqulayligini to'ldiradigan);

- *korreksion* (ta'limiy ehtiyojlar, nogironlarning o'z real imkoniyatlari doirasidagi axborotga bo'lgan so'rovlariga javoban o'qishning mazmuni va sharoitlariga to'g'rilashlar va o'zgartirishlar kiritishga imkon beruvchi);

- *qo'llab-quvvatlovchi* (o'qitish vositalari orqali ijtimoiy-psixologik yordam berishga yo'naltirilgan).

Hayot faoliyati cheklangan kattalarga nisbatan ochiqlik va holiga yarashalik tamoyilining qo'llanilishi jihozlarni, fiziologik va psixologik maqsadga muvofiq mazmun hajmini, tezlikni, ishning vaqt rejimini, o'quv materialini berishni tegishli ravishda tanlashni talab qiladi.

Bugungi kunda o'qish holatini quyidagilar yengillashtiradi:

- ta'lim jarayonini axborotli qo'llab-quvvatlash uchun telekommunikatsiyalar va ma'lumotlar bazasi imkoniyatlaridan foydalanish;

- ish joylari bilan jihozlangan Internet-sinf negizida ilmiy, o'quv-metodik axborotlar to'plamiga ochiqlikni ta'minlash;

- tayanch-harakat apparatida muammolari bo'lgan, zamonaviy o'quv markazlaridan olis masofalarda yashaydigan o'quvchilar uchun alohida dolzarb bo'lgan masofaviy ta'limni rivojlantirish;

- o'quv va ish joylarini deprivatsiya tasnifini hisobga olgan holda jihozlash (brayl qatoridan, kam eshituvchilar uchun magnitofonlardan, tayanch-harakat apparatida muammolari bo'lgan shaxslar uchun maxsus reabilitasiya texnik vositalaridan foydalanish).

Faol o'qitish imkoniyatlarini hisobga olish lozim:

- *keys-texnologiyalari*, bunda tinglovchi har bir fan bo'yicha o'quv materialining to'liq majmuasini oladi (oddiy o'quv qo'llanmasi, uning disketa, videokassetadagi yoki multimedia dasturi ko'rinishidagi elektron nusxasi), hamda tipik muammolar va ularning yechimlarining variantlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- *tarmoqli texnologiyalar* (Internet, hududiy, lokal telekommunikatsion tarmoqlar);

- *televizion texnologiyalar*, yo'ldoshli televideniye yordamida amalga

oshiriladi;

- *o'quv filmlari [III.15].*

Misol tariqasida ko'zi ojizlar va sust ko'ruvchilarni o'qitishda yig'ilgan tajribani keltirish mumkin. Ko'rish qobiliyatini anchagina yo'qotgan kishilarga axborot texnologiyalarini qo'llash ularga ko'radigan tinglovchilar bilan amalda bir xil imkoniyatlar yaratadi. Buning uchun tekis matnni o'qishni ta'minlaydigan maxsus dasturlar o'rnatilgan kompyuterlar qo'llaniladi. Zamonaviy planshetli skanerlar matnni tanish dasturlari bilan birgalikda matnni so'zlash sintezatorlari yordamida ovoz chiqarib o'qish imkonini beradi. Qoldiq ko'rish imkoniga ega bo'lgan nogironlar o'z ishlarida oddiy videodispley orqali tasvirni kattalashtirish bo'yicha dasturdan foydalanadilar.

Katta yoshdagi nogironlar bilan ishlash amaliyotida andragogning birinchi navbatdagi vazifasi bo'lib, o'qitish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishda zarur yordam ko'rsatish hisoblanadi. Katta yoshdagi nogironlarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish uchun misollar tariqasida nafaqat oliy ma'lumotli, balki ilmiy darajaga ega bo'lgan, ijodiy kasblarni egallagan va taniqli bo'lib ketgan nogironlarning ijodiy yutuqlaridan foydalanish mumkin (misollar 6-ildovada keltirilgan).

Ta'limiy holatga tushib qolgan nogironlarga o'zini muvaffaqiyatli o'qiyotgan va olingan ta'lim salohiyatini turli faoliyat va muloqot sohalarida bundan keyin qo'llash kelajagiga ega bo'lgan insoning rolida ko'rish qiyin bo'ladi.

Odatda nogironlar o'zlarining hayot faoliyatida chekovlari bo'lmagan ta'lim oluvchilar muhitida to'laqonli ishtirokchilar va kommunikativ aloqalarning tashabbuskorlari sifatida yetarli baholay olmaydilar.

Bunda andragogning vazifasi – shaxsning erkinlikka chiqishiga muloqotdan, interpretasiyadan va turli nuqtai nazarlarning tahlilidan foydalanish yo'li bilan yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdir. Tinlovchilarni: *imitatsion modellashtirish, guruhli refleksiya, hamkorlikda ijodiy mahsulot yaratish* kabi turli guruhli faoliyat shakllariga jalb qilish muayyan samara beradi. Bunday ta'limiy holatda nogironga odamovilik va ba'zi psixologik to'siqlarni yengish oson bo'lib,

ijtimoiylashuv jarayonini yanada mahsuldorroq qiladi. Ta'lim jarayoni nogironlarni o'rab turgan ijtimoiy soha doirasini kengaytirish, ularni ijtimoiy hamkorlik tizimiga kiritish uchun yordam beradi.

Nogironlarni unumli o'qitish uchun o'qitish metodlari va tashkiliy sharoitlar aniq insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlari va ijtimoiy tajribasining butun majmuasini hisobga olgan holda maksimal darajada yaqinlashtirilishi lozim.

“Mustaqil hayot” xalqaro konsepsiyasi ular bilan ish olib borishda turli xil bilimlarga qiziqishlarini qondirish imkonini beradigan sog'lomlashtiruvchi, ijtimoiy, madaniy-ta'limiy dasturlardan foydalanishga yo'naltiradi. Keyingi yillarda O'zbekistonda o'zining kuchi bilan madaniy-ta'limiy va sog'lomlashtiruvchi dasturlarni shakllantiruvchi nogironlar hamjamiyati faol ish olib bormoqda. Ta'limiy tashabbuslarni amalga oshirish doirasida xalqaro aloqalar va nogironlarning boshqa hududlar va davlatlar bilan hamkorlikdagi insonparvarlik dasturlarida ishtirok etish shakllari rivojlanmoqda. Ular hayotiy muhim muammolarning keng doirasini o'z ichiga oladi: atrofdagilardan mustaqil bo'lish tamoyiliga asoslanadigan maishiy holatni tashkil qilish; oila qurish; qarindoshlar va do'stlar bilan o'zaro aloqalarni qurish; o'z ishini tashkil qilish; artterapiya; nogironlar sporti va b.q.

Nogironlarni qiziqtiradigan muammolar doirasi, nogironlarni o'qitish va ularni qo'llab-quvvatlash sohasida ishlaydigan andragogda yuqori kasbiy darajaning va o'zining lavozim vazifalari doirasidan chiqish va hayot faoliyati cheklangan shaxslarning ta'limi muammolarini keng insonparvarlik asosida alohida ko'rib chiqish imkonini beradigan ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishini ko'zda tutadi. Nogironlarni o'qitishdan tashqari, andragog ba'zan ularning qarindoshlariga nisbatan ma'rifiy missiyani ham bajarishiga majbur bo'ladi, chunki ularning yordamisiz ta'lim jarayonini tashkil qilish juda mushkul bo'lishi mumkin.

Nogironlar bilan ish olib boruvchi andragog, psixologik nuqtai nazardan murakkab bo'lgan holatlarga duch kelishga ich-ichidan tayyor bo'lishi lozim. Hayot faoliyati cheklangan kishilar bilan domiy muloqot olib borish katta jasorat,

rahm, shavqat, ularning hayotiy va ta'limiy muammolari mazmuniga kirish, xar doim ham ijobiy bo'lmaydigan reaksiyalar va xulqlari sabablarini tushunish malakasiga ega bo'lishni talab qiladi. Eng muhimi esa – o'z vasiyligi ostidagilarga cheksiz hurmat, ularning hayotiy va ijodiy salohiyatlariga ishonch bo'lishi lozim.

Ayollarni o'qitishning o'ziga xosligi

Qattiq raqobat sharoitlarida ko'pchilik ayollar mavjud malakalariga qo'shimcha ravishda o'zlarining ijtimoiy statuslarini saqlab qolish yoki yaxshilash maqsadida ular uchun yangi bo'lgan amaliy kasbiy malaka va ko'nikmalarni (chet tilini bilish, shaxsiy kompterni bilish, ish yuritish, imij) egallashga majbur bo'ladilar. Oxirgi yillarda. boshqaruv sohasiga kirishni ta'minlash uchun ikkinchi (uchinchi) oliy ta'lim olayotgan ayollar doirasi ancha kengaydi.

Birinchi navbatda o'zlarining jinslariga ahamiyat beradigan ayollar sog'liqlari va jismoniy holatlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beruvchi bilim va ko'nikmalarni egallay turib, klub shakllarini (fitnes, sheyping, aerobika va b.q.) afzal deb biladilar.

Jinslar emansipatsiyasi va unifikatsiyasi tarafdorlari erkaklarga xos bo'lgan faoliyat turlarini, masalan, turli transport vositalarini boshqarish, sportning ekstremal turlarida ishtirok etish, ayollar teng xuquqliligi uchun turli xarakatlar va tashkilotlarda ishtirok etish kabilarni faol o'zlashtirishga tayyorlar.

Asosiy qadriyatlari oila bilan bog'liq bo'lgan ayollar amaliy ko'nikmalarni egallash va "malakali xotin" bo'lish imkonini beradigan (tikish, to'qish, yumshoq o'yinchoqlarni, bezaklarni, bezakli amaliy mahsulotlarni tayyorlash, ovqat pishirish, uy iqtisodiyoti, uy dizayni va b.q.) turli xil kurslarga jon deb boradilar.

An'anaviy ayollar funksiyalari va rollarini bajarish uchun ayollarni tayyorlash va o'qitish tizimi borgan sari ommabop bo'lib bormoqda (homiladorlikka moslashish, oilani rejalashtirish dasturlari). Yosh onalar va buvilarga maktabda o'qiyotgan bolalari va nevaralariga yordam berish lozimligidan kelib chiqib, pedagogika asoslari va ilmiy bilimlarga murojaat qilishga to'g'ri kelmoqda.

Ayolning ijtimoiy-psixologik portreti

Ayollardan iborat bo'lgan jamiyat **gomogenli** emas. Uning ichida ko'pchilik asoslar bo'yicha guruhlar ajralib chiqishi mumkin, masalan, yoshi, muayyan ijtimoiy qatlamga, etnik jamoaga, diniy guruhlariga munosibligi, oilaviy ahvoli va b.q.

Shubhasiz, har bir guruh uchun o'zining psixologik xususiyatlari mavjud. Ba'zi ayollarning fikri faqat oilaga qaratilgan, boshqalariniki esa faqat karyeraga. Lekin bular ideal tipologiyadir, chunki ko'pchilik "real" ayollar o'zlari uchun oilaga yo'nalganlikni ishga yo'nalganlik bilan qo'shib olib boradilar.

O'zlarini faqatgina "xotin" va "ona" roliga ko'radigan ayollar "uy bekasi" sindromiga ko'proq chalinadilar. U zaiflik va umidsizlik, tez-tez depressiyaga uchrash, o'zini past baholashda ko'rinadi. Faqatgina oila tashvishlariga bag'ishlangan yillar ayollarni mustaqillik va kompetentlikni his qilishdan holis qiladi, odatda o'zining MENini yo'qotishiga olib keladi, turli xil buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ayollarning, ta'bir joiz bo'lsa "oliy qismati" dan kelib chiqqan boshqa sindrom, "o'ta zo'r ayol" sindromi ham mavjud. U ma'lum ma'noda olim-ayollar, rahbarlarning tez vaqtda "o'chib qolishini", tanlangan sohadagi ularning muvaffaqiyatlarining cheklanganligini ham tushuntiradi. Bu stereotipning ta'siri ostida ayolning o'z qobiliyatlarini amalga oshirishga intilishi o'zining oilasi oldida aybdorlik hissiga qo'shiladi, o'zining karyerasidan oilasi zarar ko'rmasligi uchun qiladigan harakati amalda, uydagi ishlarni oilaning boshqa a'zolarini jalb qilmagan holda chala bajarishni bildiradi.

Zamonaviy ayol yetarli ma'lumotli bo'lib, o'ylash va kuzatishga o'rgangan, u o'zini nafaqat o'choq oldida, balki boshqa faoliyat turlarida ham ko'rsatishni xohlaydi.

Ayollar o'ta ehtiroslidir. Ular ko'pchilik erkaklar e'tibor ham bermaydigan mayda narsalarni juda yaxshi payqaydilar. Ayollar psixologiyasi uchun, hodisalarni "bo'laklarga bo'lib", kim qanday o'tirdi, uning yuzi qanday edi kabilarni tahlil qilish xosdir. Ayollarning tahlili ehtirosli bo'lib, unda har doim

ham mantiq yo'q, lekin shunisi g'alatiki, bunday tahlil asosida ayollar tomonidan qilingan xulosalar hayron qolarli darajada to'g'ri bo'lishi mumkin. Odatda shunday bo'ladiki, ayol ko'rgan yoki eshitganlariga nisbatan o'zining sezgilariga, ichki ovozigga ko'proq ishonadi.

Ijtimoiylashtirishning xususiyatlari, psixofiziologik mezonlar ayollarning ta'limga bo'lgan munosabatini aniqlab beradi. U ayniqsa erkaklar ko'proq bo'lgan sohalarida "muvaffaqiyatdan qo'rquv" deb ataladigan sifat bilan tavsiflanadi. Buni ayolning kasbiy muvaffaqiyatga erishishining ba'zi hollarda "mardonavorlik"ka tenglashtirilishi bilan qisman tushuntirish mumkin. Ayollar ko'pchilik hollarda, ularni, agar karyeralarida muvaffaqiyatga erishgan bo'lsalar qandaydir darajada kamroq ayolsifat deb hisoblashlari mumkinligi bo'yicha bezovtalanadilar.

Ishlab chiqarishda bunday tarzda kasallik ayollarning, ayniqsa erkaklar kasblarida o'zlariga past baho berishlarini belgilaydi. Bundan, ularning kasbiy da'volarining pasayishi va ular tomonidan kamroq jozibali, pastroq xaq to'lanadigan lavozimlarni band qilish kelib chiqadi.

O'quv jarayonini tashkil etishning xususiyatlari

"Ayollar ta'limi" fenomenining paydo bo'lishi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, hayotning unitar, majburiy tarzidan voz kechish natijasida kelib chiqqan. Ayollar ta'limining xususiyatlarini aniqlashda jinslarning o'xshash va farqli tomonlarini ochib beruvchi gender tadqiqotlari katta rol o'ynaydi.

Lekin, "ayollar ta'limi" xususiyatlari to'g'risida gapirishdan oldin, quyidagi jadvalda keltirilgan erkaklar va ayollarning ta'limiy ehtiyojlarini rag'batlantiruvchi motivlarni o'rganish lozim:

Erkaklar uchun ahamiyatli	%	Ayollar uchun ahamiyatli	%
Moddiy holatini yaxshilash imkoniyati	94	Moddiy holatini yaxshilash imkoniyati	87
Kasbiy yutuqlarga intilish	87	O'z-o'zini ko'rsatish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish	68

Jamiyatning hurmatiga, tan olishiga intilish.	75	Yuqori ijodiy bilish faolligi	58
Yuqori ijtimoiy shaxsiy faollik	63	Yuqori ijtimoiy shaxsiy faollik	37
Yuqori ijodiy bilish faolligi	42	Jamiyatning hurmatiga, tan olishiga intilish	18
O'z-o'zini ko'rsatish va o'z-o'zini rivojlantirishga intilish	32	Kasbiy yutuqlarga intilish	12

Hozirgi kundagi ta'limiy vazifa, gender muammolarining jamiyat tomonidan tan olinishi darajasini ko'tarish va ta'lim muassasalari gumanitar bo'limlarining asosiy ta'limiy kursi bo'lishi mumkin bo'lgan fanlarni shakllantirishdan iborat.

«Ishda ayollar va erkaklar yo'q, bu yerda barcha hamkasbdir» - bu ibora ko'pchilik rahbarlarning xodimlarning ayol yoki erkak jinsiga qaratilgan sharhlari, oqlashlari yoki ta'nalariga javob sifatida ishlatadigan so'zlari sirasiga kiradi [III.9]. Shunga o'xshagan yondashuv o'qitishda ham qo'llaniladi: biz ayollar va erkaklarni emas, balki muayyan lavozimda, muayyan maosh uchun va muayyan maqsad bilan ishlayotgan mutaxassislarni o'qitamiz.

Bunday nuqtai nazar to'liq xaqqoniydir, lekin ko'pchilik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayollar va erkaklar turlicha o'qishadi va ulardagi o'qishga bo'lgan motivatsiya ham turlichadir.

Ayollar o'zlarining erkak hamkasblaridan kamida quyidagilar bilan ajralib turadi:

- o'qishga bo'lgan xohishi va xohlamasligiga nima ta'sir qiladi;
- o'quv materialini ular qanday qabul qiladilar;
- o'qituvchining bahosiga ular qanday javob qaytaradilar;
- qanday va nima uchun ular olingan bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar yoki qo'llamaydilar.

Albatta, har qanday umumlashtirish qator kamchilik va cheklovlarga ega. Ayol faktori to'g'risida gapirganda, ayollarning erkaklar kabi har xil bo'lishi tushuniladi: kimdir o'qishni sevadi, kimdir sevmaydi, kimdir juda qobiliyatli,

kimdir esa mundoqroq. Xarakter va tajriba insonning xulqiga, jinsiga nisbatan ko'proq darajada ta'sir qiladi.

Ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq darajada o'qishga tayyor, ular tirishqoqroq va javobgarlik bilan o'qiydilar ham. Lekin buning uchun juda muhim shartni bajarish lozim: o'qish ayollar uchun qulay vaqtda o'tkazilishi lozim. Bu shart bajarilmagan zahotiyoq ayollarning o'z malakalarini oshirishga bo'lgan munosabatlari butunlay o'zgaradi. Erkaklar o'qitishga vazminroq yondashadilar: ular odatda quvonchlarini ham, e'tirozlarini ham ko'rsatmaydilar.

Ayollarning uylari va oilalari bo'yicha tashvishlari ko'p, vaqt esa hamma narsaga yetmaydi. Ko'pchilik ayollarga oilaviy majburiyatlar muhim bo'lgani uchun, barcha ishlarni bajarishga ulgurish uchun ular shaxsan o'zlariga ajratiladigan, o'zlariga qarashga, do'stlari bilan uchrashishga bag'ishlangan vaqtni qurbon qiladilar. Bu "ikki stulda" effekti deb ataladi. Bunga bo'lgan salbiy reaksiya juda tushunarli. Erkaklar bu ma'noda uy ishlaridan ozodroqdirlar.

Imkoni bo'lgan joylarda oraliq nazorat o'rnatgan holda masofaviy va sirtqi ta'limni kiritish maqsadga muvofiq. Davomli ta'lim holatida (masalan, 3 oy davomida haftada 2 marta) 1-2 o'tkazib yuborilgan mashg'ulotni, boshqa guruh bilan o'tkazib, yozma ish tayyorlab yoki o'tkazilgan material bo'yicha mini-sinov topshirib to'ldirish imkoniyatini ko'zda tutish maqsadga muvofiq.

O'quv jarayonini yoqimli odatlar bilan bezash mumkin. Hatto mashg'ulot oldidan yoqimli musiqa va devordagi ijobiy rasmlar ham kayfiyatni ko'taradi. Ishchi mavzular bo'yicha mashg'ulotlarni ayollar uchun qiziq bo'lgan mavzular: uy, oila, go'zallik va salomatlik, dala hovli, xobbi va b.q. bo'yicha mavzular bilan to'ldirish va bunga tashqaridan mutaxassislarni taklif qilish maqsadga muvofiq.

Ayollarning o'zlari o'zlariga o'quv dasturlarini bo'lmasa ham, aqalli o'qitish vaqti, shakli, dastur modullarining ketma-ketligi yoki o'qituvchini tanlashlariga imkon berish lozim. O'zlarining tanlovlariga bo'lgan munosabatlari o'zgacha bo'ladi.

O'qitish jarayonining o'ziga kelganda, bunda ham ayollar va erkaklar o'rtasida bir qator farqlar bor. Ularni dastur tayyorlayotganda hisobga olish lozim.

Xususan, ko'pchilik ayollarda abstrakt fikrlash kamroq rivojlangan bo'lib, murakkab tushunchalar va hodisalarni tushunish uchun ularga obrazlar yordam beradi. Buni **quvnoq rasmlar effekti** deb atash mumkin. Qachonki, o'qitish aralash guruhlarda o'tar ekan, erkak tinglovchilar ko'p hollada ayollardan o'nlab aniqllovchi va erkaklar nazarida axmoqona savollar uchun g'azablanadilar.

Holatni chuqurlashtirmaslik uchun quyidagilarni bajarish ma'lum ma'noga ega:

- rasmlar, grafiklar, bezak sifatidagi predmetlardan foydalanish;
- ayollarga tushunarli faoliyat sohalaridan misollar keltirish: uy, oila, dala hovli, salomatlik, narsalar, dam olish va h.k.

Misol. Ayollar kompyuter dasurini egallashga o'qiyotgan paytlarida ularga aytish lozim: "tasniflagich – bu hujjatlarni turli belgilar bo'yicha ajratish imkoniyatidir. Masalan, do'kondagi kiyimlar ranglari, o'lchamlari, yoki kiyim xillari bo'yicha bo'lingan holda osilib turishi mumkin. Hujjatlar ham turlari, sanasi yoki mavzusi bo'yicha turlanadi". Albatta, kiyimlarni do'konda qanday ilish bo'yicha munozara ham yuzaga kelishi mumkin, lekin tasniflagichning tamoyilini ayollar, har holda eslab qolishadi.

Pishgan mevalar effekti – ayollik hissiyotlilik bilan, aynan ayollar uchun vazifaning drammatizmi muhimligi bilan bog'liq. Turli olimlarning tadqiqotlari bo'icha, ayollar oldiniga holatning emotsional tomonini qabul qilishadi, keyin esa uning mohiyatini. Shuning uchun, ayollarni u yoki bu ko'nikmaga o'rgatish vaqtida, avvaliga shu ko'nikmadan fodalanish mumkin bo'lgan holatni ranglarda ifoda qilish, so'ngra esa uni batafsil ko'rib chiqishga o'tish mumkin. Syujet qanchalik qiziq bo'lsa, eslab qolish ham chuqurroq bo'ladi [III.16].

Bundan tashqari quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- Kengaytirilgan kontekstli misollardan ko'proq keltirish;
- "Ko'z oldingizga keltiringchi, Sizgamurojaat qildi", "Agar Sizga birdanigaqilish to'g'ri kelsa" va boshqalar kabi turlardagi so'zlardan foydalanish;
- Topshiriqlarni yaxshi finalga olib keladigan tarixiy hikoyalar shaklida

shakllantirish.

Shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, ayollar passiv tinglovchilar bo'lishni yaxshi ko'rmaydilar. Ularning barchasi o'z qalblarida aktrisadirlar va shuning uchun o'zlarini ko'rsatish va o'zlariga qarata qayta aloqa olish ehtiyojini sezadilar. Bu **tok-shou effekti** deb ataladi. Tajribali o'qituvchilar tasdiqlaydilarki, o'qituvchidan “Qarangchi, men to'g'ri qilyapmanmi?”, “Ayingchi, menda natija bo'lyaptimi?” deb so'rash aynan ayollarga xosdir. Bunday xulq erkaklar uchun xos emas. Bundan xulosa shuki, ko'proq odamlar bilan qamrab olishga harakat qila turib mashg'ulotlarga interfaol metodlarni qo'shish lozim [III.16].

Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Sahnalar va o'yinlar,
- O'qituvchilar bilan muhokamalar,
- Juftliklarda yoki guruhlarda ishlash ,
- Mashg'ulotlarni audio va videoga yozib olish, ularni tahlil qilish.

Shu bilan birga, o'qituvchilar tomonidan qayta aloqaning yo'qligini ayollar o'z tomonlariga indamay qilingan achchiq ta'na, xuddi: - “Sizlar shunday yomon bajaryapsizlarki, bu to'g'rida hatto gapirging ham kelmaydi” - degandek qabul qiladilar.

Tajribali o'qituvchilar ham, agar ayol u yoki bu harakatni qaytara olmasa o'zini boshqa rolda deb tasavvur qilishni tavsiya etadilar. Ayollar o'sha zahoti obrazga kiradilar va shu obraz orqali ulardan nima istashayotganini sezadilar.

Esda tutish lozimki, ba'zan 40 yoshdan oshgan ishtirokchilarni o'qitish uchun kamroq interfaol bo'lgan metodlarni, masalan, konferensiyalar, seminarlar, kichik ma'ruzalar, mustaqil o'qishni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Gap shundaki, yosh o'tgan sayin stereotiplar, odatlar kuchayadi. Hayotning har bir yili o'tgan sayin odatlanilgan xulq modellarini qayta fikrlash yoki ulardan voz kechish va o'zgarish lozimligini tan olish qiyinlashadi. O'qitish jarayonida yangi texnikalar, ish usullarini qo'llab ko'rishni taklif qilish mumkin, lekin yosh o'tgan sayin bu qiyinroq egallanadi. 40 yoshdan katta bo'lgan ayollar o'qiydigan guruhlarda har doim qarshilik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bu guruhlardagi ishtirokchilar,

ayollar ham va erkaklar ham, o'zlarining avvalgi tajribalariga "yopishib olishga", ishga bo'lgan yangi yondashuvlarni, hatto ularning foydaliligini, ish joyida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga ham urinmagan holda tanqidga olish, beqadr qilishga moyildirlar.

Aralash guruhlarda o'qitish to'g'risida gapirganda, yana bir ayol effekti – **yuvvoshlik effekti** inobatga olish lozim. U shunda ko'rinadiki, guruhli ishlarda ayollar erkaklar tomonidan ozgina bo'lsa ham bosim o'tkazilganida (jumladan, qattiq gapirganda, to'satdan mulohaza bildirilganda, so'z bo'lib qo'yilganda) ularga ovoz berish va birinchi navbatda harakat qilish xuquqini berib qo'yishga moyildirlar. Buning ustiga, bu moyillik nafaqat tabiatan uyatchan ayollar uchun, balki faol va o'ziga ishonadigan ayollar uchun ham tegishlidir.

Balki, bunda fiziologiyaning ta'siri bordir - kuchlini oldinga o'tkazib yuborish lozim. Mashg'ulotlarda erkaklar tomonidan shunga o'xshash bosimlardan holi bo'lish uchun, javoblarning yoki ko'nikmalarni namoyish qilishning navbatlilikini kiritish yoki jamoalarni jinsiy belgilar bo'yicha guruhlariga ajratish va shu orqali ayollar va erkaklarga chiqish uchun bir xil imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir. Javoblar va g'oyalarni yozma ravishda to'plash ham yordam beradi.

Shu bilan birga (ayniqsa sportda va san'atda) ayollar o'zlarining ajoyib taqlid qilish qobiliyatlari yordamida erkaklardan o'rganishi aniqlangan. Sport trenerlarining aytishicha, ayol kerakli kuch yo'qligi sababli bajara olmagan ishini ayyorlik va tirishqoqlik yordamida bajaradi. Bu treneriga yoki suhbatdoshiga taqlid qilish (uning ovozi, so'zlash usuli, mimikasi, gavdaning holati, qarashi, harakatlari) malakasini, ko'nikmalarni egallashda muvaffaqiyat bilan foydalanishi mumkin.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishda aloqasi bo'lgan yana bir effekt – **umumiy yuk effekti** deb ataladi. Uning mohiyati shundaki, ayollar yolg'iz o'qishni yoqtirmaydilar. Birinchidan, ayollarga olingan axborotni kimlardir bilan bo'lishish zarur, ikkinchidan, ayollar o'zlarini muhofaza qiladilar: qo'shni bilan nimanidir maslahatlashish, o'qish bo'yicha javobgarlikni bo'lishish [III.9].

O'qituvchilar duch keladigan tipik muammolardan biri ayollarning ishlariga qo'yilgan baholarning ular tomonidan har doim ham to'g'ri qabul qilinmasligidir. Ayollar ko'p hollarda o'z harakatlarining bahosini o'z shaxslarining bahosidan farqlay olmasdan, ularni aralashtirib yuborishga moyildirlar. O'qitishga nisbatan qo'llanganda **“Qiyomat kuni effekti”** – imtihonlardan qo'rqish va ularning ma'nosini buzish holatlari mavjud. Xususan, eng yuqori bo'lmagan natijani olganda ayol ko'p hollarda shunday mulohaza qiladi: “Modomiki, menga yomon baho qo'yishgan ekan, demak ular meni yomon ko'rishadi va qadrlashmaydi, demak meni telba deb hisoblashadi” [III.9].

Ajablanmasa ham bo'ladiki, sinov yoki imtihondagi yomon natijalar, ayolni nafaqat ko'z yoshlariga, balki kasallikka ham olib kelishi mumkin. Bularning barchasi imtihon yoki attestasiya oldidan asabiylashishdan, o'zini va boshqalarni qo'rqitishdan boshlanadi. Bundan tashqari esda tutish lozimki, ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq darajada o'z xatolari bo'yicha refleksiyaga va o'zini jazolashga moyilroqdir, ularga bu holatdan chiqishga yordam berish lozim.

Buni hisobga olgan holda alohida dars yoki alohida dasturni, hatto barcha narsaga erishilmagan holda ham, yuqori kayfiyatda yakunlash lozim, yo'qsa, kelajakda o'qishga bo'lgan xohishni yo'qotish xavfi bor.

Qiyomat kuni effekti va o'z-o'zini jazolash ta'sirini kamaytirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Imtihonlarni o'tkazishdan oldin ayollarga natijalar qanday baholanishi va ular nimaga ta'sir ko'rsatishi to'g'risida tushuncha berish, lekin “kim-kimligini ko'ramiz” tarzidagi so'zlarni hech qachon ishlatmaslik, muhitni taranglashtirmaslik.

- O'qitish va baholash jarayonida shaxsiy sifatlar (aqlli, chaqqon, faol, miyali va h.k.z.) ga emas, balki malaka, ko'nikma, bilim, vazifa, operatsiya, harakat, yechim kabi boshqa so'zlarga diqqatni qaratish, ya'ni odamlarni harakatlardan ajratmaslik.

- Xatolarni shaxssiz shaklda ko'rsatish, masalan, “Siz xato qilibsiz” emas, “bu yerda xato ketibdi” tarzida.

- Natijalardan xafa bo'lganlarni albatta hammasini to'g'rilash mumkin degan holda boshqa belgilar orqali maqtash, xushomad qilish, ko'nglini ko'tarish.

- Albatta real yutuqlar uchun maqto'vni ayamaslik. Bunda, ayollarni bir birlari bilan solishtirish nojoiz, uning bugungi natijalarini kechagisi bilan solishtirish yanada samaraliroqdir [III.9].

Ayollarni o'qitish bo'yicha o'quv rejasini ishlab chiqayotganda esda tutish lozimki, ayollar o'zlarining shaxsiy vaqtlaridan, hatto bu vaqt ularning shaxsiy kasbiy rivojlanishlari uchun sarflansa ham juda og'riq bilan ajraladilar. Lekin, ayollarning bunday o'qitishdan keladigan foydasini ochiqroq qilinsa, o'quv jarayonini yoqimli odatlar bilan boyitilsa yoki uni ayollar uchun qiziq bo'lgan tadbirlar bilan qo'shib olib borilsa, ularning o'qishga munosabatini anchagina yaxshilash mumkin.

Ayollar ta'limi tizimida o'qituvchi-andragoglarning roli ko'p jihatdan tinglovchi-ayollar xulqining modelini shakllantirishga yordam beradi. O'z jinslari vakillari bilan ishlaydigan ayol o'qituvchilar, ular uchun o'zlarining tashqi ko'rinishlari va kasbiy imijlaridan tortib fikrlash, harakat, muomala maqomigacha namuna bo'lishlari mumkin. Ayol auditoriyasi sharoitlarida erkak rag'batlantiruvchi rolni o'ynaydi, sermahsul gender hamkorligining ijtimoiy variantlarini namoyish qiladi.

Ayollarning xulqi, yuqori hissiyotlilik, sezgirlik, shaxslararo munosabatlarning yuqori ahamiyatliligi, "ayol mantiqi" va b.q. bir qator maxsus ayollik effektlari bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlarni va yuqorida ko'rsatilgan effektlarni hisobga olish, o'qitish dasturini tayyorlashda ayollar tomonidan yangi materialni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada ko'tarishga yordam beradi [III.11].

Ayollarning ham, erkaklarning ham guruhlarida qaytar aloqa hamkorlik, o'zaro hurmat, baholashsiz yondashuv tamoyiliga tayanishi lozim.

O'qituvchi-andragoglarning tipik xatolari quyidagilar:

- Trenerning maqsadlari va o'qitish vazifalarini unutish;
- O'qitishning barcha ishtirokchilariga yoqishga harakat qilish;

- Inoqlikni namoyish qilish;
- “Barcha narsani biluvchi” rolikdan harakat qilish;
- Ishtirokchining ishchan xulqining tahlili o’rniga uning shaxsini baholash.

Ayollar guruhida o’quv jarayoni samaradorligini oshiruvchi mezonlar:

- O’qitishni to’g’ri tashkil qilish va uning detallariga diqqat qilish;
- Motivlashtirish, maqsadlarni va ishtirokchilardan kutilayotgan natijalarni mufassal tushuntirish;
- Guruhni, trening guruhining optimal tarkibini to’g’ri shakllantirish;
- Komfortli toza xonalar;
- Qulay mebel;
- O’rnatilgan vaqtga rioya qilish.

3.3. Katta yoshdagi ta’lim oluvchilarning kasbga bo’lgan munosabat, mayl va intilishlarini aniqlashga bag’ishlangan tajriba-sinov natijalari tahlili

Katta yoshdagilar ta’limini tashkil etish bu yoshdagi kishilarning shaxsiy, fiziologik, ruhiy, ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarni o’rganishni talab etadi. Taniqli rus andragogi S.I.Zmeyova fikricha katta yoshdagilar hayotiy tajribasini belgilovchi asosiy faktorlar "ta’lim oluvchilarning psixologik-andragogik ta’lim tashxisi sifatida" belgilash mumkin [III. 16. 24-b]. Bu bosqich nihoyatda murakkab, mehnat talab, ko’p muddatli jarayon hisoblanadi [III. 3. 272-b].

Katta yoshdagilar va bu yoshga taalluqli bo’lmaganlar shaxsi tashxisi nisbatan qator farqlarga egadir. Tashxislash katta yoshdagilar ta’limida uzoq vaqt davom etishi bilan tavsiflanadi.

Bu jarayonda bir-biri bilan bog’liq bo’lmagan ikki vazifa hal etilishi lozim: a) kattalarga tegishli bo’lgan ta’limga bo’lgan qiziqish sabablari va b) ularning ta’lim olishga bo’lgan sobitqadam motivlari (imkonlari).

Shuni alohida qayd etish lozimki, katta yoshdagilarning ta’lim olishlariga monelik qiluvchi ko’rish, eshitish, xotira, fikrlash tezligining susayishi, ko’nikmalarning tarqoqligi ko’pincha kuzatiladi. Biroq ular ta’limidagi eng katta to’siqni ruhiy-psixologik holat tashkil etadi. Ularda o’z imkoniyatlarini past

darajada baholash, ilmiy-texnik taraqqiyotdan orqada qolayotganlik xavfi bir qadar chulg'ab oladi.

Shuning uchun ham katta yoshdagilar ta'limida ularga ishonch tug'dirish, ruhiy-psixologik ta'sir etish metodlaridan keng miqyosda foydalanishni talab etadi.

Psixologik-andragogik tashxis 4 tarkibiy jarayonni o'z chichga oladi:

1. Ta'lim oluvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash;
2. Ta'lim oluvchilarning hayotiy tajribalarining ko'lami va xarakterini aniqlash;
3. Ta'lim oluvchilarning fiziologik va ruhiy xususiyatlarini aniqlash;
4. Ta'lim oluvchilarning ta'lim olish uslublarini aniqlash.

Ta'limga bo'lgan ehtiyoj har bir kishida o'ziga xosligini hisobga olgan holda, bunday ehtiyojlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- ♦ umumiy o'rta ma'lumot;
- ♦ kasbiy malakani oshirish yoki egallash;
- ♦ salomatligini saqlash yoki yaxshilash;
- ♦ oilaviy hayot sharoitini yaxshilash;
- ♦ jamiyat hayotida qatnashish;
- ♦ mazmunli dam olish;
- ♦ o'z shaxsini kamolga yetkazishga intilish.

Psixologik-andragogik tashxisning ilk qadami, katta yoshdagi inson ta'lim olmoqchi bo'layotgan fan sohasini aniqlashdan iborat. Negaki ko'pchilik katta yoshdagilar o'z hayot ko'lamini o'zgartirish istagidan xoli bo'lmaydilar. Bu hol kasbiy qiziqishlaridagi o'zgarishlarda ayniqsa namoyon bo'ladi (o'z malakalarini yanada oshirishga intilish, peshqadamlik orzusi, o'z kasbini o'zgartirishga moyillik).

Psixologik-andragogik tashxis natijalariga ko'ra u yoki kasbga layoqatlilik (kompetentlik) modelining bashoratga asoslangan modelini yaratish mumkin. Bu model kasbiy mahoratiga asoslangan holda boshqa kasb malakalarini egallashi mumkin bo'ladi.

Ta'lim oluvchilar andragog ko'magida u yoki bu ijtimoiy tizim sohasiga talab etadigan bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlar hajmi, ko'lamini aniq ishlab chiqilgan kasbiy tavsifnomalar shaklida bo'lishi mumkin. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, bu sohadagi kasbiy klassifikatorlar, kasbiy tavsifnomalar deyarli barcha fanlar bo'yicha yaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlaridagi fanlar bloklarida o'z aksini topgandir.

Andragoglar tayyorlashning navbatdagi qadamini ta'lim oluvchi o'zlashtirmoqchi bo'lgan bilim sohasiga bo'lgan uning layoqat darajasi (kompetentligi)ni xolis tahlildan o'tkazadigan iboratdir. Tashxis natijasiga ko'ra ta'lim oluvchiga tuzatish maslahatlari beriladi.

Andragogik ta'lim obyekti sanalmish insonning bo'lajak kasbga bo'lgan layoqati - bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlamasdan turib unga andragogik ko'mak berish mutlaqo o'rinsizdir. Shuning uchun uning bu sohadagi layoqati tashxisdan o'tkaziladi.

Buning uchun:

- temperament (mijoz) tipi;
- xarakterning o'ziga xos jihatlari aniqlanishi lozim.

Mazkur muammoni hal etishda so'zsiz Dj.Xolland taklif etgan testlar qo'l keladi (quyida mazkur test matnini keltiramiz). Avvalo Dj.Xolland testi haqida o'z tavsifnomamizni berib o'tishni joiz deb bilamiz. Dj.Xolland amerikalik psixolog bo'lib, mutaxassisning o'z kasbiga layoqatliligini 6 tipga asosan aniqlashni taklif etadi [III. 30]:

1. Realistik tip.
2. Intellektual tip.
3. Ijtimoiy tip.
4. Kelishuvchan, moslashuvchan tip.
5. Tadbirkor tip.
6. Artistlik qobiliyatli tip.

Mazkur tiplarning eng so'nggisi har bir kishida u yoki bu darajada mavjud ekanligini alohida e'tirof etish lozim. Dj.Xolland tomonidan tavsiya etilgan ushbu

metodikada har bir kasb egasining kasbga bo'lgan munosabat, mayl va intilishlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, quyida "A" va "B" juftliklari bo'yicha tayyorlangan kasbga tegishli kataklarni to'ldirish talab etiladi ("+" yoki "-" sifatida):[III. 30]

N _o	A	B	N _o	A	B	N _o	A	B
1			14			27		
2			15			28		
3			16			29		
4			17			30		
5			18			31		
6			19			32		
7			20			33		
8			21			34		
9			22			35		
10			23			36		
11			24			37		
12			25			38		
13			26			39		

**USHBU BLANK QUIYDAGI KASBLAR RO'YXATI ASOSIDA TO'LDIRILADI.
KASBLAR**

1	A	Quruvchi-injener	B	Konstruktor
2	A	Elektrotexnik	B	Sanitar-vrach
3	A	Tokar	B	Harf teruvchi
4	A	Fotograf	B	Magazin mudiri
5	A	Chizmach	B	Dizayner
6	A	Filosof	B	Psixiatr
7	A	Ilmiy jurnal muharriri	B	Advokat
8	A	Lingvist	B	Badiiy adabiyot tarjimoni
9	A	Pediatr	B	Statistik
10	A	Sport vrachi	B	Felyetonchi
11	A	Notarius	B	Ta'minlovchi
12	A	Perforatorchi	B	Karikaturachi
13	A	Siyosiy arbob	B	Yozuvchi
14	A	Bog'bon	B	Meterolog
15	A	Avtobus haydovchisi	B	Feldsher
16	A	Injener-elektrik	B	Sekrater-mashinistka
17	A	Bo'yoqchi	B	Metall va yog'och bo'yicha rassom
18	A	Biolog	B	Bosh vrach
19	A	Teleoperator	B	Rejissyor
20	A	Gidrolog	B	Revizor
21	A	Zoolog	B	Bosh zootexnik

22	A	Matematik	B	Arxitektor
23	A	Bolalar xonasi inspektori	B	Hisobchi
24	A	O'qituvchi	B	Professional yetakchi, lider
25	A	Tarbiyachi	B	Keramika bo'yicha rassom
26	A	Iqtisodchi	B	Bo'lim boshlig'i
27	A	Korrektor	B	Tanqidchi
28	A	Xo'jalik boshqaruvchisi	B	Direjyor
29	A	Radiooperator	B	Yadrochi-fizik
30	A	Tuzatuvchi (naladchik)	B	Montajchi
31	A	Urug'shunos-agronom	B	Menedjer
32	A	Bichuvchi	B	Dekorator
33	A	Arxeolog	B	Ekspert
34	A	Muzey ilmiy xodimi	B	Konsultant
35	A	Olim	B	Aktyor
36	A	Logoped	B	Stenografist
37	A	Vrach	B	Diplomat
38	A	Bosh hisobchi	B	Direktor
39	A	Shoir	B	Psixolog

5 balldan kam bo'lmagan ball to'plagan tip yetakchi deb topiladi. Tahlil barcha shkalalar bo'yicha o'tkaziladi. Eng ko'p ball to'plagan tiplar bo'yicha xulosa chiqariladi.

№	Tip	Javoblar
1	Realistik	1a 2a 3a 5a 14a 15a 17a 19a 29a 30a 31a 32a
2	Intellectual	1b 6a 7a 8a 14b 18a 20a 21a 24a 29b 33a 34a 35a
3	Sotsial	2b 6b 9a 10a 15b 18b 23a 24a 25a 34b 36a 37a 39b
4	Kelishuvchan (konvensial)	3b 9b 11a 12a 16b 20b 23b 26a 27a 30b 33b 36b 38a
5	Tadbirkor	4b 7b 11b 13a 19b 21b 24b 26b 28a 31b 35b 37b 38b
6	Artistik	4b 5b 8b 10b 12b 17b 22b 25b 27b 28b 32b 39a

Mazkur tiplarning tavsifi:

1. Realistik tip. Bunday inson konkret, aniq narsa, asbob, jonivor, mashinalar bilan shug'ullanishni yoqtiradi. Rahbarlik va har qanday inson bilan yaqin aloqada bo'lishni talab etuvchi faoliyatdan qochadi. Mexanik, injener, elektrik, agronom, bog'bon, haydovchilik kasblarini yoqtirmaydi.

2. Intellectual tip. Bunday kishi nihoyatda hissiyotga beriluvchan, tasavvurga boy bo'lib, u yoki bu g'oyani amalga oshirishdan ko'ra nazariy tahlil

etishni yaxshi ko'radi. Abstrakt fikrlashni talab etuvchi faoliyatni yoqtiradi, ilmiy kasblarni tanlaydi, masalan, biolog, botanik, astronom, fizik.

3. Sotsial tip. Bunday inson muammoni hal etishda intellektuallikdan ko'ra his-tuyg'uga ko'proq tayanadi. Tanlagan kasbi: o'qitish va davolash; shifokor, o'qituvchi, ruhshunos, muloqot, boshqaruv, san'at va ta'lim yo'nalishida muvaffaqiyat qozonadi.

4. Kelishuvchan (konvensial) tip. Bunday kishining moslashuvchanligi og'ir kechadi. Devonxona, hisob-kitob bilan bog'liq faoliyat turi bilan shug'ullanadi. Nutqi rivojlanmagan, boshqalar ta'siri asosida qaror qabul qiluvchi shaxs.

5. Tadbirkor tip. "Erkakcha" rahbarlikni yoqtiradi. Qo'l mehnati hamda katta diqqat talab etadigan kasblarni yotirmaydi. Mudir, direktor, teleoperator, artist, diplomat, jurnalist kasblarini tanlaydi.

6. Artistik (ijodkor) tip. Unda intuitsiya va tasavvur rivojlangan bo'ladi [III.9].

Mazkur tiplar bo'yicha SamDU qoshidagi MO va QT markazi bazasida 2014-2015 yillarda biz tomonimizdan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalarini quyida keltiramiz:

Tajriba (26 kishi) hamda nazorat (25 kishi) guruhlaridagi o'z kasbiy mahorati asosida o'z kasbini boshqa yondosh yoki unga yaqin bilim, ko'nikma va malakalarni talab etuvchi kasbga o'zgartirishni istovchilar mayl va istaklari quyidagi jadvalda o'z aksini topdi:

Nazorat guruhi (25 kishi):

№	Tip	Andragoglar soni
1	Realistik	6
2	Intellektual	2
3	Sotsial	4
4	Kelishuvchan (konvensial)	5
5	Tadbirkor	3
6	Artistik	5

Tajriba guruhi (26 kishi):

№	Tip	Andragoglar soni
1	Realistik	3
2	Intellectual	5
3	Sotsial	6
4	Kelishuvchan (konvensial)	2
5	Tadbirkor	5
6	Artistik	5

Ko'rinib turibdiki, nazorat guruhidagi ko'rsatkichlar bilan tajriba guruhidagi ko'rsatkichlar birinchi tipda $6 > 3$, ikkinchi tipda $2 < 5$, uchinchi tipda $4 < 6$, to'rtinchi tipda $5 > 2$, beshinchi tipda $3 < 5$, oltinchi tipda $5 = 5$ ni tashkil etmoqda. Mantiqiy xulosaga keladigan bo'lsak, andragogik ta'lim dasturi asosida bilim olgan tajriba guruhi tinglovchilari ongli ravishda o'z kasblariga yaqin kasblarni o'zgartirishga istak, mayllarini ifoda etishgandir.

Bob yuzasidan xulosalar

Mazkur bobda ishsizlar, imkoniyati cheklangan katta yoshdagilar, nogironlar hamda ayollarni o'qitishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, turli-tuman interfaol metodlardan hamda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib beriladi.

Kasbiy tayyorgarlik natijasida ishsizlar yangi bilim va malakalarni egallashlari, yangi kasbiy rivojlanishdagi individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos bo'lgan o'z yo'llarini muvaffaqiyatli o'tishlari lozim. Ish qidiruvchi shaxslar duch keluvchi muammolarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning eng muhimlari bu toifadagi katta yoshlilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq.

Ishsizlarni kasb-hunarga o'qitishni tashkil qilish va uning mazmuniga ko'pgina mezonlar ta'sir qiladi, ularning ichida, potensial ta'lim oluvchilar sifatidagi va ish joyini izlovchilar sifatidagi ishsizlarning ijtimoiy-demografik va shaxsiy xususiyatlari eng katta qiymatga ega. Ularga nafaqat o'zgaruvchan, balki hududiy xarakterga ega bo'lgan mehnat bozori ehtiyojlarining xususiyatlari ham kiradi.

Bundan tashqari, shuni hisobga olish lozimki, masalan, ishsiz erkaklar va ayollar o'rtasida ham farq bor. Ishsiz erkaklarda ijtimoiy dadillik ko'rsatgichi ayollarnikidan pastroq, lekin amaliylik ko'rsatgichi balandroq, ya'ni ishsiz erkaklar ko'proq tortinchoqlikka ega va pragmatikroqdir.

Ishdan bo'shab qolgan ishsizlarning o'zining bo'shaganligiga xafa bo'lishi va xafa bo'lmasligi bilan farqlanuvchi psixologik xususiyatlari ham bor. Birinchilarida hissiy beqarorlik darajasi yuqori, o'z-o'zini nazorat qilish darajasi yuqori emas, ularda frustratsiya ko'rsatgichi ikkinchilarnikidan yuqori.

Shuning uchun muhim masalalardan biri tinglovchilarda o'ziga va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni tiklashga qaratilgan xayrixoh muhitni yaratishdir. Barcha bilan (javob reaksiyalarining xarakteridan qat'iy nazar) bir tekisda va manfaatdorlikda muomala qilish psixologik yuklamalarning bosimini bo'shashtirish imkonini beradi.

Tanishish jarayonining o'zida u yoki bu yordamni ko'rsatish zarurati aniqlanadi, bular: psixolog bilan suhbat, mehnat bozorida mavjud bo'lgan vakansiyalar bo'yicha individual maslahat yoki kasbiy tayyorgarlik kurslariga yuborish to'g'risida masalani hal qilish bo'lishi mumkin.

Ayollar ta'limi tizimida o'qituvchi-andragoglarning roli ko'p jihatdan tinglovchi-ayollar xulqining modelini shakllantirishga yordam beradi. O'z jinslari vakillari bilan ishlaydigan ayol o'qituvchilar, ular uchun o'zlarining tashqi ko'rinishlari va kasbiy imijlaridan tortib fikrlash, harakat, muomala maqomigacha namuna bo'lishlari mumkin. Ayol auditoriyasi sharoitlarida erkak rag'batlantiruvchi rolni o'ynaydi, sermahsul gender hamkorligining ijtimoiy variantlarini namoyish qiladi.

Ayollarning xulqi, yuqori hissiyotlilik, sezgirlik, shaxslararo munosabatlarning yuqori ahamiyatliligi, "ayol mantiqi" va b.q. bir qator maxsus ayollik effektlari bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlarni va yuqorida ko'rsatilgan effektlarni hisobga olish, o'qitish dasturini tayyorlashda ayollar tomonidan yangi materialni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada ko'tarishga yordam beradi.

Psixologik-andragogik tashxisning ilk qadami, katta yoshdagi inson ta'lim olmoqchi bo'layotgan fan sohasini aniqlashdan iborat. Negaki ko'pchilik katta yoshdagilar o'z hayot ko'lamini o'zgartirish istagidan xoli bo'lmaydilar. Bu hol kasbiy qiziqishlaridagi o'zgarishlarda ayniqsa namoyon bo'ladi (o'z malakalarini yanada oshirishga intilish, peshqadamlik orzusi, o'z kasbini o'zgartirishga moyillik).

Psixologik-andragogik tashxis natijalariga ko'ra u yoki kasbga layoqatlilik (kompetentlik) modelining bashoratga asoslangan modelini yaratish mumkin. Bu model kasbiy mahoratiga asoslangan holda boshqa kasb malakalarini egallashi mumkin bo'ladi.

UMUMIY XULOSALAR

Magistrlik dissertatsiyasini yakunlar ekanmiz Oliy ta'lim malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida andragoglarni samarali va maqsadga muvofiq tarzda tayyorlash:

- andragoglarni tayyorlash rejasi hamda uslubiy ta'minot asosida bajarilgan;
- YuNESKO xalqaro tashkiloti belgilagan talablar hisobga olingan;
- ushbu tayyorgarlik tegishli OO'Yu MO va QT markazi o'quv rejasida aks ettirilgan;
- andragoglarga qiziqishi va ehtiyojini qondira oladigan ilmiy-uslubiy ta'minot yaratilgan;
- ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda izzat-hurmati joyiga qo'yilgan taqdirdagina jahon andozasiga mos tarzda amalga oshirish mumkindir.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari tashkil etilgan bo'lib, hozirgi bosqichda ular ishini takomillashtirish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinishini taklif etamiz:

1. Kattalar ta'limini amalga oshirishda ixtiyorlik prinsipi:
 - a) Matematik-filologiya bilan qiziqsa - marhamat; filolog matematikani o'rganmoqchi bo'lsa - yo'l to'silmasin.
 - b) Yosh xususiyatiga ko'ra andragoglarni salomatlik darajasiga ko'ra emas, balki qiziqish va intilishiga ko'ra sinflarga bo'lish.
 - v) Dars beruvchilarni ularning o'z orasidan, eng tajribali, lidearlaridan tanlab, o'zaro muloqotni tashkil etish lozim.

2. Andragoglar tayyorlashda universitet zahirasi (professor-o'qituvchilar)dan samarali foydalanish. Ularni konkurs asosida 100% lik haq to'lash sharti bilan ishga jalb etish.

Bundan tashqari, psixologik-andragogik tashxisning ilk qadami, katta yoshdagi inson ta'lim olmoqchi bo'layotgan fan sohasini aniqlashdan iborat. Negaki ko'pchilik katta yoshdagilar o'z hayot ko'lamini o'zgartirish istagidan xoli bo'lmaydilar. Bu hol kasbiy qiziqishlaridagi o'zgarishlarda ayniqsa namoyon

bo'ladi (o'z malakalarini yanada oshirishga intilish, peshqadamlik orzusi, o'z kasbini o'zgartirishga moyillik).

Psixologik-andragogik tashxis natijalariga ko'ra u yoki kasbga layoqatlilik (kompetentlik) modelining bashoratga asoslangan modelini yaratish mumkin. Bu model kasbiy mahoratiga asoslangan holda boshqa kasb malakalarini egallashi mumkin bo'ladi.

Ta'lim oluvchilar andragog ko'magida u yoki bu ijtimoiy tizim sohasiga talab etadigan bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlar hajmi, ko'lamini aniq ishlab chiqilgan kasbiy tavsifnomalar shaklida bo'lishi mumkin. Shuni alohida aytib o'tish lozimki bu sohadagi kasbiy klassifikatorlar, kasbiy tavsifnomalar deyarli barcha fanlar bo'yicha yaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlaridagi fanlar bloklarida o'z aksini topgandir.

Kasbiy tayyorgarlik natijasida ishsizlar yangi bilim va malakalarni egallashlari, yangi kasbiy rivojlanishdagi individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos bo'lgan o'z yo'llarini muvaffaqiyatli o'tishlari lozim. Ish qidiruvchi shaxslar duch keluvchi muammolarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning eng muhimlari bu toifadagi katta yoshlilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq.

Ishsizlarni kasb-hunarga o'qitishni tashkil qilish va uning mazmuniga ko'pgina mezonlar ta'sir qiladi, ularning ichida, potensial ta'lim oluvchilar sifatidagi va ish joyini izlovchilar sifatidagi ishsizlarning ijtimoiy-demografik va shaxsiy xususiyatlari eng katta qiymatga ega. Ularga nafaqat o'zgaruvchan, balki hududiy xarakterga ega bo'lgan mehnat bozori ehtiyojlarining xususiyatlari ham kiradi.

Bundan tashqari, shuni hisobga olish lozimki, masalan, ishsiz erkaklar va ayollar o'rtasida ham farq bor. Ishsiz erkaklarda ijtimoiy dadillik ko'rsatgichi ayollarnikidan pastroq, lekin amaliylik ko'rsatgichi balandroq, ya'ni ishsiz erkaklar ko'proq tortinchoqlikka ega va pragmatikroqdir.

Ishdan bo'shab qolgan ishsizlarning o'zining bo'shaganligiga xafa bo'lishi va xafa bo'lmasligi bilan farqlanuvchi psixologik xususiyatlari ham bor.

Birinchilarida hissiy beqarorlik darajasi yuqori, o'z-o'zini nazorat qilish darajasi yuqori emas, ularda frustratsiya ko'rsatgichi ikkinchilarnikidan yuqori.

Shuning uchun muhim masalalardan biri tinglovchilarda o'ziga va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni tiklashga qaratilgan xayrixoh muhitni yaratishdir. Barcha bilan (javob reaksiyalarining xarakteridan qat'iy nazar) bir tekisda va manfaatdorlikda muomala qilish psixologik yuklamalarning bosimini bo'shashtirish imkonini beradi.

Tanishish jarayonining o'zida u yoki bu yordamni ko'rsatish zarurati aniqlanadi, bular: psixolog bilan suhbat, mehnat bozorida mavjud bo'lgan vakansiyalar bo'yicha individual maslahat yoki kasbiy tayyorgarlik kurslariga yuborish to'g'risida masalani hal qilish bo'lishi mumkin.

Ayollar ta'limi tizimida o'qituvchi-andragoglarning roli ko'p jihatdan tinglovchi-ayollar xulqining modelini shakllantirishga yordam beradi. O'z jinslari vakillari bilan ishlaydigan ayol o'qituvchilar, ular uchun o'zlarining tashqi ko'rinishlari va kasbiy imijlaridan tortib fikrlash, harakat, muomala maqomigacha namuna bo'lishlari mumkin. Ayol auditoriyasi sharoitlarida erkak rag'batlantiruvchi rolni o'ynaydi, sermahsul gender hamkorligining ijtimoiy variantlarini namoyish qiladi.

Ayollarning xulqi, yuqori hissiyotlilik, sezgirlik, shaxslararo munosabatlarning yuqori ahamiyatliligi, "ayol mantiqi" va b.q. bir qator maxsus ayollik effektlari bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlarni va yuqorida ko'rsatilgan effektlarni hisobga olish, o'qitish dasturini tayyorlashda ayollar tomonidan yangi materialni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada ko'tarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 21 b.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 23 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent, 1992. – 48 b.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997. – 64 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent; O'zbekiston, 1996. 1- jild.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 2- jild. – 362 b.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 3- jild. – 366 b.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 4- jild. – 349 b.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. 5- jild. – 384 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 686 b.
9. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 260 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 326 b.

11. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 22 b.

12. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 360 b.

13. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. «Turkiston» axborot agentligi muxbirlarining savollariga javoblar. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. –26b.

III. Darsliklar va qo'llanmalar

1. Арнаутов М.И., Сергеев Н.К. Историко-педагогический анализ становления и развития системы непрерывного педагогического образования // Педагог: наука, технология, практика. - 2001. - № 2(11).-С.5-15.

2. Антология педагогической мысли Узбекистана. - М.: Просвещение. 1986. - 516с.

3. Василькова А. Основы андрагогики. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2009. -256с.

4. «Государственные требования к переподготовке и повышению квалификации педагогических кадров» утвержденная постановлением N 25 КМ РУз от 16.02.2006 г.

5. Дановский СЛ. «Социологическая и психологическая характеристика безработных», 1994г.

6. Зарецкая И.И. Профессиональная культура личности // Понятийный аппарат педагогики и образования : сб. науч. тр. / отв. ред. Е.В. Ткаченко. Вып. 2. Екатеринбург. 1996. С. 264.

7. Закон «О социальной защищенности инвалидов в Республике Узбекистан».

8. Змеева С. И. Андрагогика: основы теории, истории и технологии обучения взрослых. - М.: ПЕР СЭ, 2007. - 272с.

9. Kattalar ta'limining xususiyatlari (tuzuvchilar: A.Zokirov, N.Abdunazarov, G.Yuldasheva, N.Raximov). O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2013. – 172 b.

10. Кто меня научит? О.Б.Чикуров. - Методические материалы для тех, кто работает в образовании взрослых. Часть II - Институт по международному сотрудничеству ассоциации народных университетов Германии. – Ташкент 2005. - 108 с.

11. Макастрова Н. С. Из доклада на 1-й Байкальской Конференции "РУКОВОДИТЕЛЬ И ПЕРСОНАЛ: МИФЫ, ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ"

12. Модельный закон "Об образовании взрослых" (новая редакция) принятый Советом по сотрудничеству в области образования государств участников. -Содружества независимых государств, 2005 г.

13. Национальная программа по подготовке кадров. «Гармонично развитое поколение - основа прогресса Узбекистана», Ташкент, 1997.

14. Онушкин В.Г., Огарев Е.И. Образование взрослых: Междисциплинарный словарь терминологии. – СПб.; Воронеж, 1995.

15. Основы андрагогики: Учеб. пособие для студ. высш. пед. О 753 учеб. заведений // И. А. Колесникова, А. Е. Марон, Е. П. Тонконогая и др.; Под ред. И. А. Колесниковой. – М: Издательский центр «Академия», 2003. - 240 с.

16. Особенности обучения взрослых. (составители: А.Закиров, Н.Абдуназарова, Г.Елдашева). Учебно-методическое пособие. – Ташкент: ИПК и ПКССПО, 2011. 178 с.

17. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 24 мая 2007 г. N106

18. Рабочая книга андрагога / Под ред. С. Г. Вершловского. — СПб., 1998. – 198 с.

19. Российская педагогическая энциклопедия: В 2 т. / Под ред. В. В.Давыдова. - М., 1993-1999.

20. Рашидов Х.Ф. Особенности развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане. Ташкент: Фан, 2004. с.288

21. Раченко И.П. Диагностика педагогической компетентности. Методические советы. - Пятигорск: ПГПИЯ, 1992. - 198 с.

22. Соловьева О.А. «Профессиональная реабилитация инвалидов в решении социальных проблем занятости», Автореферат, G-Петербург, 2003г.
23. Словарь финансовых и юридических терминов.
24. Трудовой Кодекс Республики Узбекистан.
25. Учение как самооценочность: Доклад Международной комиссии по образованию 8 XXI века для ЮНЕСКО / пред. комиссии Жак Делор. ЮНЕСКО, 1996.
26. Феофанов К.А. Ценностно-нормативный аспект безработицы в России // Социс, 1995, №9, с.69
27. Энциклопедия профессионального образования: в 3-х т./Под ред. С.Я.Батышева - М.: 1999. т.2. - 133 с.
28. Юцявичене П.А. Теория и практика модульного обучения. - Каунас: Швисса, 1990.-271с.
29. Knowls M, The Modern Practice of Adult Education:from Pedagogy to Andragogy. -N.Y., 1970
30. Holland Dj.L. Self-directed search assessment booklet. A guide to educational and vocational planning. Psychological Assessment Resources, Inc., Odessa, Fla, 1985.

IV. Konferensiya materiallari

1. Rahimov H., Ibragimov X.I. Ahrorov Yu.A. «Katta yoshdagilar uchun ta'limda axborot texnologiyalari» // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 9-12.
2. G'aniyev F.S., Indiaminov N.N., Nazarov X.E. «O'zbekistonda katta yoshdagilar ta'limining yagona tizimini yaratish» // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 12-18.
3. G'aybullayev N.R., Indiaminov N.N., Qurbonov H. «O'zbekistonda kattalar ta'limi konsepsiyasini ishlab chiqish sari» // Katta yoshdagilar uchun ta'lim

mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 24-28.

4. Musayev A., Abduvohidov S. "Kattalar ta'limi tarixi va uning istiqbollari" // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 28-31.

5. Xurramova S.H., Ahrorov Yu.A. "Katta yoshdagilarni o'qitish prinsiplari" // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 31-36.

6. Ostonov Q.N. "Andragogika fani istiqbollar va muammolar" // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 41-44.

7. Abduvohidov S.N., Kolesnik M.O. Samarqand pedagog – olimlari kattalar ta'limi haqida // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 47-49.

8. Shodiyev N., Mamajonov B. "Katta yoshdagilarni umumta'lim va kasbiy tayyorgarligini oshirishda integrasiyaning o'rni" // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 52-59.

9. Iskandarov E.I. "Uzluksiz ta'lim tizimida katta yoshdagilarni o'qitishning ba'zi psixologik va uslubiy masalalari" // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 59-62.

10. Yo'ldoshev B. "Kattalar ta'limida tilshunoslikning nazariy asoslarini o'rganish" // Katta yoshdagilar uchun ta'lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 74-77.

11. Norimov Sh., Barakayev M, Hayitboyev Q. “Katta yoshdagilarni qayta kasbga tayyorlash samaradorligini oshirish yo’llari // Katta yoshdagilar uchun ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to’plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 77-79.

12. Razzoqov D.N. Qayumova D.Z. “Kattalar ta’limida yo’naltirilgan matnlar bilan ishlash texnologiyasi // Katta yoshdagilar uchun ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to’plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 79-83.

13. Xayriyev I. (SamDU) “Katta yoshdagilar ta’limida milliy qadriyat tushunchalaridan foydalanish // Katta yoshdagilar uchun ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to’plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 83-87.

14. Xo’jayev M.S., Shodiyev N. “Katta yoshdagi AQSh fuqarolariga o’zbek tilini xorijiy til sifatida o’rgatish” // Katta yoshdagilar uchun ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to’plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 87-90.;

15. Elmurodov N. “Katta yoshdagilar ta’limida G’afur G’ulom ijodini o’rganish” // Katta yoshdagilar uchun ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to’plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 98-100.

16. Mirzamahmudov T., Mirzamahmudova N.T. “Katta yoshdagilar ta’lim-tarbiyasida pedagogik mahorat masalalari” // Katta yoshdagilar uchun ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to’plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 100-103.

17. Sulaymonov M., Shodiyev F. “Katta yoshdagilarga psixologik bilim berishning ayrim masalalari” // Katta yoshdagilar uchun ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari to’plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – B 103-105.

V. Internet saytlari

www.ziynet.uz

www.google.uz

www.referat.uz

www.bilimdon.uz

www.uzmu.uz

ILOVALAR

1-ilova

O'quv dasturlarini ishlab chiqish tuzilmasi

O'quv dasturlari quyida keltirilgan tuzilma asosida ishlab chiqiladi.

O'quv dasturining tuzilmasi

Titul varag'i;

Ta'lim muassasasining nomi;

Dasturning nomi;

Tuzuvchining F.I.Sh.;

Tasdiqlash sanasi;

Asosiy matn.

1 .Tushuntirish xati

Tushuntirish xatida ushbu dasturning dolzarbligi va bu dastur bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarga sarflanadigan vaqt hisoblari keltiriladi. Tushuntirish xati 1-2 bet hajmda quyidagi sxemaga muvofiq bayon qilinishi lozim:

- Modulning dolzarbligi;
- Modulning qisqacha bayoni;
- Modulga ajratilgan soatlar soni;
- Blokning nomi;
- Modulning nomi (modulning nomeri va nomi);
- O'quv maqsadlari;
- Kutilayotgan natijalar - ushbu modulning o'quv materialini o'rganayotganda

tinglovchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Bilimlar	Ko'nikmalar

1. O'quv modullari

Ularda modullarning maqsadlari, modul birliklari, topshiriqlar mazmuni, slaydlar namunalari va boshqa o'quv materialini aks ettiriladi. O'quv modullarini shakllantirishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- Mazmunning o'qitish maqsadlariga muvofiqligi;
- Zamonaviy pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari to'g'risidagi axborotlardan keng foydalanish;
- Ko'rgazma materiallardan keng foydalanish;
- Nazariy mashg'ulotlardan so'ng o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarni yoritish.

O'quv modulining tuzilmasi.

1. O'quv moduli bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular nomi	Hammasi bo'lib	Nazariya	Amaliyot	Mustaqil ish
1					
2					

O'quv yuklamasini rejalashtirayotganda kurslar tinglovchilarining mustaqil ishlariga alohida e'tibor beriladi.

Ularning tuzilmasi:

1. Mazmuni (3-4 betda modulning qisqacha tavsifi beriladi).
2. Amaliy qism (foydalaniladigan o'qitish metodlari, shakllari va vositalarining qisqacha tavsifi).
3. Bilim va ko'nikmalarni tekshirish uchun nazorat savollari va testlar.
4. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

O'quv modulining ahamiyatiga mos ravishda o'quv dasturiga amaliy mashg'ulotlar metodikasi bo'yicha quyidagi tuzilmaga muvofiq maxsus bo'lim kiritilishi lozim:

1. o'qitish metodlari va shakllaridan foydalanish usullari;
2. topshiriqni aniqlash;
3. topshiriq maqsadlari;
4. foydalaniladigan o'qitish vositalari;
5. topshiriqni bajarishning texnologik jarayoni (texnologik xarita);
6. topshiriqni bajarish sifatining nazorati.

Kattalarni o'qitish kurslari tinglovchisining anketasi

F.I.Sh. _____

Tug'ilgan sanasi _____

Oilaviy holati _____

Yashash manzili va telefoni _____

Kasbi _____

Tashkilot nomi va lavozimi _____

Asosiy sifatlari va malakalari:

Shaxsiy sifatlari _____

Kasbiy malakalari _____

Qiziqishi _____

Kredosi _____

Qo'shimcha ma'lumotlar _____

Ishtirokchining F.I.Sh. _____

1. Sizning o'qishdan umidlaringiz
2. Sizning shubha va qo'rquvlaringiz
3. Sizning tilaklaringiz
4. To'ldirilgan sana _____

ISHSIZLARNI O'RGANISH BO'YICHA SO'ROVNOMA

Sizdan, har bir savolga berilgan javoblardan Sizning fikringizga to'g'ri keladigan variantini belgilashingizni so'raymiz. So'rovnoma anonim bo'lib, uning natijalaridan faqat umumlashtirilgan holatda foydalaniladi.

Sizning jinsingiz: erkak, ayol (tagiga chizing)

Yoshingiz_____

Ma'lumotingiz: tugallanmagan o'rta, o'rta, boshlang'ich kasbiy, o'rta maxsus, kasbiy, oliy (tagiga chizing)

Siz oxirgi ish joyingizni qancha muddat oldin yo'qotgansiz?_____

Ishsiz qolganizdagi his tuyg'ularingizni eslashga harakat qiling. Quyidagi berilgan qaysi holatlar Sizning hissiy holatingizda ko'proq bo'lgan? (2 tadan ko'p bo'lmagan javobning tagiga chizing)

- o'zini yo'qotib qo'yish;
- ezilganlik;
- sog'liqni tiklash istagi;
- qaxr, g'azab;
- o'zingizga ishonchsizlik;
- yangi ish topish istagi;
- umidsizlik;
- ertagi kunga ishonchsizlik;
- o'zingizni variantingiz

Sizning hissiy holatingiz bugungi kunga kelib qay darajada o'zgardi?

- o'zgarmagan;
- yomon tomonga o'zgargan;
- yaxshi tomonga o'zgargan;
- o'zingizni variantingiz

Ishsizlik holatingizga qanchalik moslashdingiz (o'rgandingiz)?

- qisman moslashdim;
- to'liq moslashdim, chunki sog'ligim tufayli ishga yaroqsizman;
- ishsizlik holatiga hozircha moslasha olmayapman;
- o'zingizni variantingiz _____

Ishsizlik sharoitida qaysi holatlar Sizga ko'proq ko'mak beradi?

- yaqinlaringiz va qarindoshlaringizning ko'magi;
- o'zimning xatti-harakatim, yaxshilikka ishonchim;
- bandlik xizmati mutaxassislarining ko'magi;
- ishsizlik bo'yicha oladigan nafaqam;
- psixologaning yordami;
- hech qanday yordam olmayapman;
- tez-tez shifokorga borib turaman, davolanyapman;
- o'zingizni variantingiz _____

Ishsiz degan status nima uchun sizga yoqmaydi? (2 dan ortiq bo'lmagan variant tagiga chizing)

- doimo pul yetishmaydi;
- o'zimni "ikkinchi navli" odam deb his qilaman;
- o'zimni nima bilan band qilishni bilmayman;
- kasbiy malakalarimni yo'qotayotganday bo'laman;
- bandlik xizmatida so'rovchi bo'lish jonimga tegdi;
- o'zimni hech kimga kerakmasday his qilaman;
- ishsiz statusim meni qoniqtiradi, chunki sog'ligim tufayli ishga yaroqsizman;
- o'zingizning variantingiz _____

Ishsiz yurganingizdagi ijobiy deb nimalarni belgilash mumkin? (2 dan ortiq bo'lmagan variant tagiga chizing)

- bo'sh vaqt ko'paydi;

- shahar ijtimoiy ta'minot xizmati yordamidan foydalanish mumkin;
- bandlik xizmati kurslarida qo'shimcha kasb egallash mumkin;
- sog'liqni tiklash imkoniyati, sog'ligim tiklangandan so'ng ishlayman;
- yoqtirgan ishim bilan shug'ullanishim mumkin;
- o'zingizni variantingiz _____

Siz qanday yordam olishni xohlaysiz? (faqat bitta javobni tagiga chizing)

- ishga joylashishga ko'mak;
- malaka oshirish yoki qayta tayyorlash;
- shaxsiy ishimni tashkil qilishga ko'mak;
- hayotiy o'zgarishlarga moslashishimga ko'mak;
- moddiy yordam - ishsizlik bo'yicha nafaqa;
- samarali ish topish malakalarni o'zlashtirish;
- o'zingizni variantingiz _____

Siz ishga joylashish kelajagingizni qanday baholaysiz?

- men tez ish topaman;
- birdaniga emas, lekin albatta ish topaman;
- ish topish imkoniyatim juda kam;
- sog'ligim tufayli to'g'ri keladigan ish topa olmayman;
- o'zingizni variantingiz _____

Sizning fikringizcha, ishga joylashishga avallambor nimi yordam beradi?

(faqat bitta javobning tagiga chizing)

- faol mustaqil ish izlash;
- malaka oshirish;
- boshqa kasb egallash;
- shaxsiy tadbirkorlikni yurgizishga ko'mak;
- bandlik xizmati inspektori tomonidan taklif qilinayotgan ish variantlari;
- menga hech nima yordam bermaydi, chunki hiech kim nogironlarni ishga qabul qilmayapti;

- psixologning hayotiy o'zgarishlarga moslashishga ko'magi;
- o'zingizni variantingiz _____

Ish izlash uchun Siz nima qilyapsiz?

Tasavvur qiling, ishsizlik bo'yicha maksimal nafaqani uzoq, muddat davomida olish mumkin. Shunday holatda Siz ish izlashni to'xtatgan bo'laringizmi yoki davom ettirar edingizmi?

- bari bir ish izlagan bo'lardim;
- ish izlamasdan nafaqa olib yurishga rozi bo'lardim;
- ish izlamasdim, chunki sog'ligim tufayli ishga yaroqsizman;

Sizning ishga joylashishingizga nima halaqit beryapti? (javob variantlaringiz 2 tadan ortmasin)

- kasbim yo'qligi;
- bor kasbim bo'yicha malakamning pastligi;
- ish tajribamning yo'qligi;
- nogironligim;
- mening qarorsizligim, uyatchanligim;
- yoshim;
- ish izlash malakamning yo'qligi;
- sog'ligim;
- yosh bolalarimning mavjudligi;
- oilaviy sharoitim;
- uzingizni variantingiz _____

O'z sog'ligingizga qanday qaraysiz?

- jismoniy holatimdan qa'tiy nazar, o'zimni sog' deb hisoblayman;
- o'zimning nogironligim va ishga yaroqsizligimning pastligini tan olaman.

Vaqtinchalik ishini yo'qotgan kishi bilan intervyu

Intervyuning maqsadi: ishsizlikning destruktiv ta'siri darajasini, o'qish davomida psixologik qo'llab-quvvatlash va korrektsiyalash zaruriyatini aniqlash.

1.Kirish

Mening ismim (...). E'tiroz bildirmasangiz, Sizga bir necha savollar bermoqchi edim. Meni Siz qayerda ishlaganligingiz, Sizning bugungi muammolaringiz qiziqtiradi. Bizning suhbatimiz noformal bo'lishi maqsadga muvofiq, shuning uchun javoblar uchun aniq ifodalarni topishga harakat qilmang. Agar men biror narsani tushunmasam, qaytadan so'rayman. Albatta, Siz suhbatimizning biror qismiga qaytib, kerakli ma'lumotlarni to'ldirishingiz mumkin.

2.Intervyu savollari

1. O'zingizning kasbiy karyerangiz to'g'risida so'zlab bering. Kasbiy ta'lim olganmisiz? Qayerda va qachon? Mehnat biografiyangiz qanday shakllangan? Qayerda va kim bo'lib ishlagansiz? Agar ish joyingiz va kasbingizni o'zgartirgan bo'lsangiz, unda qanday sabab bilan o'zgartirgansiz? O'zingizning mehnat faoliyatingiz bilan bog'liq bo'lgan eng esda qolarli vaziyatlarni gapirib bering.

Obyektiv ma'lumotlar bo'yicha ishdagi harakatlar, subyektiv ma'lumotlar bo'yicha esa turli xil faoliyat ko'rinishlariga va ishdagi usishga bo'lgan munosabatni aniqlash muhimdir. Vazifa - ishga bo'lgan munosabatni aniqlashdir.

2. Fikringizcha, insoning hayotida ish qanday ahamiyatga ega? Siz uchun ishda nima muhim?

Birinchidan, ishga va kasbga berilganlik darajasini, ikkinchidan, inson ishdan qanchalik manfaatdorligini aniqlash lozim. Agar u ishning moddiy tomonini afzal deb bilsa, unda ish haqining qaysi hajmini yetarli deb hisoblaydi, qaysi yaqin kasblar bunda unga qiziqarliligini aniqlash lozim.

3. Siz qancha vaqtdan beri ishlaysiz? Qancha vaqtdan beri ishlamaysiz? Qanday sabab bilan ishsiz bo'lib qoldingiz?

Bu savolning vazifasi — ishsizlikning obyektiv va subyektiv sabablarini aniqlashdir. Bu yerda inson yuzaga kelgan vaziyatga o'zini aybdor deb hisoblashi yoki hokimiyat, iqtisodiy vaziyat va boshqalarni ayblashini aniqlashdir.

4. Ishsiz qolganda Siz qanday muammolarga duch keldingiz? Ishsiz holatingizni qanday his qilyapsiz?

Ishsizlikning destruktiv ta'siri darajasini aniqlash, ushbu aniq holatning qanchalik falokatli deb hisoblanshini aniqlash muhimdir.

5. Ishingizni yo'qotganingizdan keyin Sizning o'z yaqinlaringiz va do'stlaringiz bilan munosabatliringiz o'zgardimi? Bo'sh vaqtingizni tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelyapsizmi? Ishning yo'qotilishi Sizning sog'ligingizga qanday ta'sir ko'rsatdi?

6. Ishsizlik Sizda ko'p narsani o'zgartirganligini ayta olasizmi? Bu to'g'rida nima deb o'ylaysiz?

Savol kasbiy o'z-o'zini anglash uchun ichki resurslar borligi yoki yo'qligini aniqlashga qaratilgan. Savol inson yuzaga kelgan holatdan chiqa olganligi va kelajakka qandaydir tajriba olganligini tushunishga yordam beradi.

7. O'zingizning keyingi hayotingizni qanday rejalashtiryapsiz? Yaqin kelajakda nimalar qilmoqchisiz? Qanday sharoitlarda Sizning ishga joylashishingiz Sizni qoniqtirishi mumkin?

Bu yerda kasb bilan, oilaviy ishlar bilan, moddiy muammolar bilan bog'liq yo'nalishlar qayd etiladi. Bu yerda insonning hayotiy yo'nalishlarida nimalar eng zarurligi, faoliyat doirasini o'zgartirishga tayyorligini aniqlash maqsadga muvofiq.

8. O'quv mashg'ulotlarida qanday savollarga javob topishni istaysiz? Qaysi muammolar bo'yicha so'zga chiqishni, fikr almashishni, munozara qilishni istaysiz?

Bu savollarga javoblar intervyu beruvchining individual ta'lim marshruti dasturini va uni optimal tashkil etishni belgilash imkonini beradi.

3. Suhbatni yakunlash

Rahmat. Suhbatimiz Sizni charchatib qo'ymadi deb umid qilaman. Bugun bilib olganlarim keyingi hamkorligimizga yordam beradi deb o'ylayman.

Suhbatning yakunida o'zingiz haqingizdagi ba'zi ma'lumotlarni (necha yoshdasiz, qayerda tug'ilgansiz, oilaviy holatingiz, oilangiz a'zolari qayerda ishlashadi yoki o'qishadi) xabar qiling.

Intervyu davomida olingan ma'lumotlar quyidagi masalalarni yechish imkonini beradi.

- psixolog maslahati to'g'risida,
- kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha maxsus ishlar to'g'risida,
- kasbiy ta'limning qanday tashkil etilishi lozimligi to'g'risida,
- keyingi ishga joylashish uchun qanday ishlar qilinishi lozimligi to'g'risida.

Ishsizlar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar

1. Eng muhim vazifalardan biri, tinglovchilarda o'zlariga va imkoniyatlariga ishonchni tiklashga yordam beruvchi do'stona muhitni yaratishdir.
2. Barcha bilan (javoblarining turliligidan qat'iy nazar) bir tekisda va qiziqish bilan muomala qilish psixologik yuklamalar bosimini pasaytirish imkonini beradi.
3. Tanishish jarayonining o'zidayoq: - psixolog bilan suhbat, mehnat bozorida mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlari to'g'risida maslahatlar yoki kasb ta'limi kurslariga yuborish masalasini hal qilish kabi yordam berish zaruriyati aniqlanadi.
4. O'z navbatida o'qitish qo'shimcha stress holati bo'lib qolmasligi lozim, shuning uchun shaxsning ichki resurslarini faollashtirishga imkon beruvchi muhitni yaratish juda muhimdir.
5. O'rganish juda yengil yoki juda qiyin bo'lmasligi lozim, chunki u holatda ham, bu holatda ham u o'zining diqqatni to'plovchi ahamiyatini yo'qotadi.
6. Kasbiy ta'lim "shaxsiy malakani" oshirish, ya'ni jamoada o'zaro munosabat qilish, muammoni yechishga ijodiy yondashish, o'ziga javobgarlikni olish, xatolardan tajriba chiqarib olish malakalari bilan to'ldirilishi lozim.
7. Ishsizlar bilan ishlaydigan mutaxassislar o'quv holatini psixologik optimistik holatga aylantira borib, ma'lum ma'noda psixoterapevt funksiyalarini bajarishlari lozim.
8. Ishsizlarni kasbiy o'qitishning natijaviyligi o'qitish dasturi o'qitilayotgan toifaning xususiyatlarini qanchalik hisobga olganligiga bog'liq. Ishsizlarning aniq ijtimoiy guruhlarining aniq muammolarini yechishga mo'ljallangan dasturlar yaxshi natija beradi.

SEMINARLAR UCHUN MASHQLAR

Tanishuv bosqichi

Guruhning barcha ishtirokchilari yig'ilganda va ular bir-birini birinchi marta ko'rayotganlarida mavzu yoki o'quv materiali ustida ishlashdan avval o'zaro muloqot o'rnatishga yordam beradigan usullarni qo'llash foydalidir. Seminar ishtirokchilari bir-birlari bilan xatto tanish bo'lsalar ham, har doim inson haqida yangi va qiziqarli narsalarni bilib olish mumkin. Bu bosqichda biz xotirjam va erkin vaziyatda seminar ishtirokchilarini ochiqlikka, ijodkorlikka yo'naltirishga, har kimga so'zlash imkoniyatini berishga harakat qilamiz, bu esa keyinchalik guruhning barcha a'zolarining o'quv jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Ishtirokchilarning bir-birlari bilan tanishishlari uchun turli o'yinlar variantlari mavjud. Sizga taklif qilayotgan usullarimizning har biridan alohida har xil seminarlarda, shuningdek, bir nechtasini bitta seminarda ham qo'llash mumkin.

O'zingiz haqingizda so'zlab bering

Bu davra bo'ylab o'zini tanishtirishdir, lekin uni qiziqarliroq o'tkazish uchun har bir ishtirokchiga o'zini tanishtirganidan keyin kutilmagan savol beriladi, masalan: "Nima uchun sizga shunday ism berilgan?" yoki "Sizning o'tgan yildagi eng katta yutug'ingiz nimadan iborat bo'ldi?" yoki "Teatr yoki kinoda qanday rolni o'ynashni xohlaysiz?" Odatda, bunday savollar ishtirokchilarning bir-biriga nisbatan **qiziqishini** uyg'otadi va "dilidagilarni ochish"ga yordam beradi. Eng muhimi - so'zlovchiga halaqit bermaslik, diqqat bilan tinglash lozim, chunki ko'pchilik ishtirokchilar guruh oldida birinchi marta so'zga chiqyaptilar.

Sherigingiz haqida so'zlab bering

Boshqalar haqida so'zlash doim osonroq, shuning uchun ishtirokchilardan sherigi haqida, uning ismi, kasbi, eng katta so'nggi yutuqi, eng katta so'nggi

mag'lubiyati, o'zi bilan umumiy bo'lgan tomonlari haqida so'zlab berish so'raladi (tanishtiruv qisqa bo'ladi). Bunda vaqtni qat'iy belgilash zarur, masalan, tanishuvga - 5 daqiqa, tanishtirishga - 30 soniya. Bu mashg'ulotga bo'lgan qo'shimcha qiziqishni tug'diradi.

Guruh bo'lib tanishish

Agar vaqtingiz juda ham chegaralangan bo'lmasa, tanishuvning boshqa, kengaytirilgan usullarini qo'llash mumkin. Bunda ishtirokchilar 4-6 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga, masalan, barchaga xos 5 ta umumiy va 3 ta farqli belgilarni topish vazifasi beriladi. Keyin guruhlar avval a'zolarining ismlarini, keyin natijani aytadilar. Bunda ham vaqtni qat'iy chegaralash zarur.

Tasavvurlar (assosiatsiyalar) uyumi

Bu usul ishtirokchilarning ismini tez va oson eslab qolishga yordam beradi. Davradagi birinchi ishtirokchi ismini shu harfdan boshlanuvchi sifat bilan qo'shib aytadi (masalan, "farosatli Farida", "aziz Adolat", "taraqqiyparvar Tuyg'unoy" va h.k.). Odatda, sifat qanchalik kulgili yoki kutilmagan bo'lsa, shunchalik oson eslab qolinadi.

Ikkinchi ishtirokchi birinchisining so'zlarini takrorlaydi va o'zini tanishtiradi, uchinchi ishtirokchi esa birinchi, ikkinchi ishtirokchilarning sifat qo'shilgan ismlarini qaytarib, keyin o'z ismini xuddi shu tartibda aytadi va h.k. Eng mushkul vazifa moderatorning gardaniga tushadi, chunki u hamma ishtirokchilarning ismi va sifatlarini sanab chiqib, so'ng o'zinikini qo'shadi. Lekin xavotirga o'rin yo'q - guruh albatta sizga yordam beradi.

Portretlar

Ishtirokchilarni darhol ijodiy muhitga kiritib qo'yadigan usullardan biri - portret chizish usulidir. Lekin u ham ko'p vaqt oladi. Qatnashchilar juftliklarga bo'linadilar, qo'llariga qattiq asos (masalan, papka) va oq qog'oz olib, 10 soniya

ichida qog'ozga qaramasdan, sheriklarining ko'ziga qarab, uning rasmini chizishlari kerak. Moderatorning buyrug'i bilan ular chizishni to'xtatadilar, rasmga o'z ismlarini yozib, sheriklariga o'zlarini tanishtiradilar va portretlar bilan almashadilar.

Keyin yana boshqa juftliklarga bo'linib, xuddi shu ishni takrorlaydilar. Berilgan vaqtga qarab mashqni 5-10 marta qaytarish mumkin. Shunday qilib, mashq yakunida har bir ishtirokchi 5-10 ta shaxsiy portretga ega bo'ladi. Keyin har bir ishtirokchining individualligini aks ettirgan 1-2 portretni tanlaydi, nima uchun aynan uni tanlaganini tushuntiradi. Rasmlar deyarli qaramasdan chizilgani uchun juda kulguli, "xususiylikni aks ettirish" esa ramziy bo'ladi.

Tanishuv davrasi

Ishtirokchilar davra bo'lib turadilar. Ishtirokchilardan biri davra o'rtasiga chiqib, ismini aytadi va o'ziga xos yoki o'ylab topilgan harakat yoxud imo-ishorani ko'rsatib, yana joyiga qaytadi. Hamma ishtirokchilar uning harakati, so'zlash ohangi, imo-ishorasini iloji boricha aynan takrorlaydilar. Shunday qilib, har bir ishtirokchi o'z ismini aytadi va o'z harakati yoki imo-ishorasini ko'rsatadi.